

35  
R 99



SH.S. RO'ZIMOV

# HARBIY HIKMATLAR – MA'NAVIY QUROL



MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
**HARBIY KAFEDRASI**

SH.S. RO‘ZIMOV

# **HARBIY HIKMATLAR – MA’NAVIY QUROL**

**UO‘K: 13:355**

**KBK: 71**

**R 99**

**Sh.S. Ro‘zimov. Harbiy hikmatlar – ma’naviy quroq. – T.: «Nihol print» OK, 2021. – 100 b.**

**ISBN 978–9943–7028–8–2**

To‘plam Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Harbiy kafedrasi” umumharbiy tayyorlarlik sikl o‘qituvchi Sh.S. Ro‘zimov tomonidan tayyorlangan.

**UO‘K: 13:355**

**KBK: 71**

**Taqrizchilar:**

A. Razaqov;

Z. Muzaffarov.

**Mas’ul muxarrir:**

A. Abdujamilov.

Mazkut to‘plam Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-uslubiy kengashining qarori bilan chop etishga tavsiya etildi.

**ISBN 978–9943–7028–8–2**

**© «Nihol print» OK nashriyoti, 2021.**

## I & SO'Z BOSHI

*Tanlangan o'z taraqqiyot va  
islohot yo'limizdan tezkorlik bilan  
ilgari siljishga ruhiy quvvat  
beradigan milliy madaniyatimiz – Sharq  
hikmatshunosligining hayotbahsh va  
teran buloqlaridan bahramand bo'lish  
muhimdir.*

**Islom Karimov**

Ushbu to'plamda bevosita harbiy sohaga taalluqli hikmatlar to'plangan.

Hikmat, maqol va rivoyatlar insonni ixcham fikrlashga va o'z fikrlarini aniq ifodalashga xizmat qiladi. Hikmatlarda har bir xalqning uzoq o'tmishidan buyon ortti-rib kelayotgan hayotga, mehnatga, kasbga va insonlararo munosabatlardagi tajribalari, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, hayot quvonchlari, shodlik va g'amgin, dard alam-lari, orzu umidlari, falsafiy, diniy, axloqiy va estetik his tuyg'ulari, ijobjiy fazi-lat va salbiy illatlari, aql-zakovati o'z ifodasini topib kelishi bilan o'z avlodlariga katta xizmat qildi.

Xalqimiz uzoq tarixga ega bo'lgan xalq ekanligini butun jahon yaxshi biladi, chunki ajdodlarimiz o'z farzandlariga ta'lif-tarbiya berishda, dunyoqarashini va musta-qil fikrlashini shakllantirishda mavjud hikmatlardan, maqol, rivoyat va afsonalardan keng foydalanishgan va imkon qadar ularga amal qilishlari bilan farzandlariga namuna ko'rsatishgan. Chunki hikmat va maqollar har bir inson tasakkurini o'tkirlashtiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi, axloqiy va estetik didini shakllantiradi, mustaqil va aniq, asosli fikrlashni tashkillashtiradi, xushyorlik bilan mantiqli so'zlashga o'rgatadi, ijodiy faoliytni oshiradi, xalqining milliy an'analariga va insoniyatning umumin-soniy qadriyatlariga hurmat, mumtoz adabiyotga muhabbat uyg'otadi, latofat, malohat, iroda, jasorat va mahorat, vatanparvarlik, xalqchillik kabi insoniy sifatlarini tako-millashtiradi, xushmuomalali fazilatlarni singdiradi, hozirgi murakkab zamonda dunyoqarashini to'g'ri yo'lda solishda asos bo'ladi. Harbiylarda hikmatlar so'zlarining ta'sirini va qat'iyligini yanada oshiradi.

Hikmatlar har bir insonga, xususan, harbiylarga ma'naviy ozuqa beradi va o'zli-gini, el-yurt qadrini va vatanni himoya qilishning mazmun mohiyatini anglab yetishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ofitserning hikmatlarni ko'p bilishi va o'rinni ishlatalishi bilan askarlarimizning fikrlashini, nutqini, aql-idrokini va axloq-odobini tarbiya-laydi. Hozirgi zamon yoshlari har bir voqeа va hodisani mantiqan tahlil etishni alohida e'tibor berishadi, bahs-munozaraga kirishishga intilishadi va doimo kuzatuvchanligi bilan oldingi avlodlardan farqlanishadi.

Globallashuv sharoitida, turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar va tajovuzlar avj olib borayotgan vaqtida yoshlарimizni, aytiqsa, harbiylarimizni milliy va umumin-soniy qadriyatlar asosida tarbiyaviy ishlarni olib borishda hikmatlardan foydalanish, avlodlararo aloqalarni mustahkamlashda, ota-bobolarimizning vatanparvarlik ishla-riga sodiq bo'lishni ta'minlaydi.

Har bir xalq o'z avlodlarini tarbiyalashda, komil insonlar bo'lib, ajdodlari kin-diklari qoni to'kilgan zaminni doimo ozod va yanada obod bo'lishini ta'minlashlari uchun, bobolari va otalari, momolari va onalari amal qilayotgan hayotiy, kasbiy, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni hartomonlama egallab va ularga amal qilib sa'y-harakat qilishlari bilan erishib boradilar. Har bir insonni millat, xalqning asl farzandi bo'lib, yurtining haqiqiy himoyachisi bo'lib, vatandoshlarining orzu umidlari-ning ro'yob chqarishlari uchun yurtda va jahonda tinchlikni barqarorligini ta'minlash, zamon talab etadigan ilm va malakalarni egallashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun o'z oromini, huzur halovatini, qonini va kerak bo'lsa jonini ham qurbon qilishga doimo shay bo'lishdek kasb egalarini bo'lmish "Vatan himoyachilari" degan muqaddas kasb egalarini burch va mas'uliyatlarini doimo eslatib turadigan, ixcham, lo'nda, o'tkir, tushunarli va ta'sirchan hikmatli so'zlarni o'qib, o'rganib borishlari tavsiya etmoqdamiz. Sizning qo'lingizdagи mu'jazgina risolada insoniyatning ming yillar davomida hayot sinovlaridan o'tgan va har qanday sharoit va vaziyatlarda ham insonga to'g'ri yo'lni topi-shiga va oqilona qarorlar qabul qilishiga ma'naviy va ruhiy oziqa bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Inson hayotida tinchlik bebaho hisoblanadi, shuning uchun vatanning va xalqning asl farzandlarigina o'z hayotlarini yurti va xalqining kelajagini yaratishlari uchun tikadilar. Shuning uchun ham mardning ishi o'lmaydi, u abadiylikka molik deb momomiz To'marisni

va bobolarimiz bo'lmish Shiroqni, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabilarni doimo o'z jonlaridan kechib, kelgusi avlodlarining o'z vatanlarida baxtli va farovon yashashlari uchun ko'rsatgan mardlik va jasoratlari doimo har birimiz uchun qalbimizni alangalatib turuvchi va bizga doimo kuch-qudrat bag'ish-lovchi, aql-zakovatimizni yanada ravshanlashishiga, har qanday dushmanga jismonan, ma'nан va aqlan munosib zarba berishga qodir qilib boradi.

Mamlakatimizda azaldan donishmand bobolarimizning hikmatli so'zlarga alohida hurmat va e'tibor bilan qarab kelishgani uchuń ham dunyoni lol qoldirgan ilmiy kashfiyotlar qilib, qator ilm-fanlarni asoslagan Xorazmiy, Farg'oniy, Buxoriy, Samarcandiy, Termiziy, Nasafiy, Shoshiylar kabi buyuk insonlar qoldirgan boy ilmiy va ma'naviy boylik va qadriyatlarning merosxo'rlarimiz. Har bir kasbning o'ziga xos hikmatli so'zları, rivoyatlarini xalq doimo e'zozlab kelgusi avlodlariga merom qoldir-ganlar. Shu ma'naviy qadriyatlar, rivoyatlar va hikmatli so'zlar bizni o'zligimizni anglab yetishimizga, milliy g'ururimizga munosib farzandlar bo'lib ajdodlarimiz hoki yotgan va kelajakda o'zimiz ham abadiy uyquga ketadigan zaminni har bir qarich yerini qo'riqlashni o'zimiz uchun shon-sharaf ishi deb bilishimiz kerak.

**II & O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,  
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni  
SHAVKAT MIRZIYOYEV**

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq Ozbekiston Respublikasi Qurolli Kuchalarini isloq qilishga uning saflarini Vatan taqdirini o'z taqdiri deb biladiga milliy kadrlar bilan butlashga katta e'tibor qaratildi. Bugun strategik va taktik vazifalarni samarali hal qilishga, mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikni saqlashga qodir, son jihatdan ixcham, zamonaviy, xarakatchan va yaxshi qurollangan milliy armiyamizga ega bo'ldik.

Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'glonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubxasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imizdir.

Davlatimiz raxbari xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida qilgan ma'rzasida bugunga kunga kelib mamlakatimizning mudofa a qobilyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida joylardagi davlat hokimiyyati organlarining faolligini va rollini oshirish bo'yicha qilinayotgan ishlar sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga ko'tarilganini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

2018 yil 23 - fevralda Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konpsiyasini tasdiqlash to'g'risda"gi qarori imzolandi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Mudofaa varirligi tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tizimga soluvchi qo'llanma ishlab chiqdi. Konsepsiya mohiyatini quyida qisqacha tushuntiramiz.

**Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifalari:**

yoshlarda O'zbekiston Respublikasi, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish;

faol hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodini, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatini kuchaytirish, axborot-psixologik xurujlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mastahkamlash;

Vatan ozozdligi yo'lida jasorat ko'rsatgab buyuk ajdodlarimiz hamda O'zbekiston mustaqilligini himoya qilish uchun jon fido etgan milliy qahramonlarimiz bilan faxlanish tuyg'usini shakllantirish;

buyuk tariximiz, milliy urf-odat, an'an ava qadriyatlarining hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini chuqr tushuntirish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish;

Vatanimizni himoya qilish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligini chuqr singdirish;

milliy armiyamizning o'rni va ahamiyati, jangovar salohiyatini keng tushuntirish;

yoshlarga oid davlat siyosatining mohiyatini aniq misollar bilan ongiga singdirish.

**Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi:**

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va oliv ta'lim muassalari;

davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar.

**Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini asosiy prinsplari:**

aniqlik va tezkorlik;

ilmiyilik;

ta'lim va tarbiya ishlarinig uyg'unligi;

muntazamlik;

tarbiya jarayonining izchilligi

faoliyat;

erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish;

tarixiyilik.

**Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bosqichlari:**

**birinchi bosqich-(3-7 yoshdagilar)** –oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tegishli yo'naliishlar bo'yicha she'rlar, qo'shiqlar ertak va hikoyalar aytib berish, rasmlar chizdirish, harbiy muzeylar va madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyakar, sport musobogalari tashkil etish, davlat ramzları (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishtirish asosida ularda ona yurtga muhabbat tuyg'ularini shakllantiriladi;

**ikkinchi bosqich-(7-16 yoshgdagi bolalar)** - o'quvchilarning vatan-ga muhabbatni va sadoqatini mustahkamlash, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirish, yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, barkamol inson sifatida shakllantirish;

**uchinchi bosqich-(16-18 yoshdagi o'smirlar)** – miliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nан yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib boriladi;

**to'rtinchi bosqich-(18-30 yoshdagilar)** – yoshlarning jismonan va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intelektual salohiyati, professional malakasini oshirishm egallagan kasbiga sadoqatlari va fidoiyligi nazarda tutiladi.

**Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi omillari:**

jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish;

harbiy texnika va o‘q otish qurollardan foydalana olish; birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bilimlarga ega bo‘lish; harbiy mashq va usullarni qo‘llay olish; fuqarolik burchi, majburiyati va mas’uliyatini aniqlash; mamlakatning strategik maqsadlarini bilish; milliy tarixni bilish va u bilan g‘ururlanish; milliy qahramonlar haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘lish; milliy manfaalar mazmuni va mohiyatini bilish.

### **Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi vasitalar:**

qurol-yarog‘ va harbiy texnikalar; o‘quv trenajorlari, maxsus jihozlangan sinf, xona va joylar; harbiy kiyim-kechak va maxsus anjom-aslahalar; ko‘rgazmali-axborot materiallari( slayd, informatika va h.k.); targ‘ibot-tashviqot materiallari(banner, plakat, panno, flay va h.k.); hujjatli film, maxsus ko‘rsatuv ko‘rsatuv va roliklar; harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi adabiyotlar; elektron va bosma axborot manbalari.

Askarlar harbiy qasamyod qabul qilishdan oldin albatta, O‘zbekiston tarixini va “ Temur tuzuklarini ”dan sinov topshirishi kerak.

Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchilar o‘rtasida reyting tizimi yo‘qligi ushbu kamchiliklarni keltiradi.

Halk davlatga xizmat qilmasligi kerak, davlat halqga xizmat qilishi kerak.

Har bir oila, har bir xonardon yaxshi kunlar, tuy tomoshalar ko‘p bo‘lsin yurtimiz tinch, osmonimiz musofa, to‘kin-sochinlik bo‘lsin va sixat salomatchilik bo‘lsin.

Har bir oila tadbirkor, har bir xonadonda kichik biznes tashkillashtirish uchun imkon yaratish.

Rahbarlarga murojatida byujetni bajarmaslik bu xiyonat.

Prezident harakat qiladi, prezident siyosat olib boradi, o‘rnimiz bilinmasa, odamlarga yordam bermasak ular bizdan rozi bo‘ladimi.

Odamlarning ichiga kirib ularning manfati, marifati – manaviyatini bilish kerak. Har bir odamni kichik biznesga jaib qilish va uni boy qila olish uchun meni bo‘ yo‘ldan hech kim qaytara olmaydi.

**III&. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Mustaqilligimizni mustahkamlash, mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada qudratli bo'lishi inson omiliga bog'liqligi haqida ikrllari**

Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayat asosini qurish deganidir.

\*\*\*

Biz iste'dodli, fidoyi bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabit etish uchun qanot berishimiz kerak.

\*\*\*

Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgani shaxslar kerak.

\*\*\*

Diplomga ega bo'lish – bu hali tom ma'nodagi ziyoli emas. Ziyoli odam o'z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo'lakcha inson bo'ladi.

\*\*\*

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim.

\*\*\*

Kelajagi buyuk davlat eng birinchi navbatda bo'lajak fuqarolarining madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur.

\*\*\*

Yoshlarga milliy vatanparvarlik ruhida ta'lim-tarbiya berish bugungi kunning jiddiy vazifalaridan hisoblanadi.

\*\*\*

Har qanday inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovon-ligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas.

\*\*\*

Shu mo'tabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o'zini aynan shu yurt farzandi deb biluvchi inson o'z davlati, o'z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak.

\*\*\*

Milliy g'oya, milliy iftixor kundalik mashaqqatli ishlarimizda va buniyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag'ishlab, ruhimiz baland, belimizni baquvvat qilişhiga ishonaman.

\*\*\*

Ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

\*\*\*

Ilmu ma'rifat e'zozlangan mamlakatda hech kim urush haqida bosh qotirmaydi. Chunki ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi.

\*\*\*

Biror bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqlolini tasavvur eta olmaydi.

\*\*\*

Amir Temur avvalo qudratli davlat qurban. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi.

\*\*\*

O'z – o'zini el ishiga bag'ishlagan, inson tarbiyasiga jon tikkan olijanob o'qituvchilarni, mo'tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko'taramiz.

\*\*\*

Ilmu tafakkur – kishini e'zozlikka boshlaydigan beqiyos kuch. Ilm va tafakkur odamlar qalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan mo'jizadir.

\*\*\*

Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch – qudratini, adolatpar-varligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda keljakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siyomosini eslashi kerak.

\*\*\*

Azaldan xalqimiz orasida dono va iste'dodli yoshlar ko'p chiqqan, ular aqlu zakovat bobida dunyoni lol qoldirishgan. Siz, farzandlarimizning tomirida insoniyat ma'naviy xiziñasiga ulkan hissa qo'shgan Amir Temur, Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimiz qoni jo'sh urmoqda.

\*\*\*

Ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal eilsa, ijtimoiy siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rmini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

\*\*\*

Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur tasodifan paydo bo'lgani yo'q – bu aynan shu xalqimiz qon-qoniga singan ma'rifat konuniyatining davomi.

Ajdodlarimiz ma'naviy-axloqiy qadriyatlari biznin Ona-Vatanimiz va xalqimiz oldidagi farzandlik burchimiz, harbiy qasamimizni mas'uliyat va sharaf bilan bajarishimizda yurtimizning asl o'g'lonlari tomonidan yaratilgan ma'naviy merosimiz hozirgi globallashuv sharoitidagi har qanday tahdidlarga qarshi turishimiz hamda kurashishimizda quroq bo'lib xizmat qiladi.

## **IV & OFITSER – OTA O’RNIDA TARBIYACHI**

\*\*\*

Ofitserning buyrug‘i qattig‘u, natijasi totli bo‘ladi.

\*\*\*

Ofitser barcha bilan bir xilda muonmala qilishi bilan hammani og‘ani bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishga o‘rgatadi.

\*\*\*

Ofitser qattiqo‘l ammo adolatli bo‘lsa, askarlar harbiy ilmni chuqur egallaydilar.

\*\*\*

Ofitserning adolati bilan haqiqati – askarlarni harbiy tartibi va intizomini yo‘lga solish omilidir.

\*\*\*

Ofitser – na faqat zamon oldida balki kelajak oldida ham mas’uldir.

\*\*\*

Birgina ofitserning xato qaror qabul qilishi, ko‘plab yoshlarning shijoatini va g‘ayratini behudaga chiqarib yuborishi va ularni mag‘lubiyatga olib kelishi mumkin.

\*\*\*

Ofitser bo‘lish oson emas, ammo ofitser bo‘lib jangni boshqarish esa yanada mushkul ishdir.

\*\*\*

O‘ta qattiqo‘l ofitser – intizom va jangovarlikning ildizining yemirilishiga olib keladi.

\*\*\*

Ofitser harbiy ilmlarnigina emas, balki qo‘l ostidagi har xizmatchining o‘ziga xos sifat va illatlarini biladigan kuchli tarbiyachi ham bo‘lishi lozim.

\*\*\*

Mustaqillik – ozodlik, bilimlilik, ma’naviyatlilik, e’tiqodlilik va imonlilik hamda iroda bilan yuksaladi.

\*\*\*

Ozodligimizni xatolarga yedirmaylik!

\*\*\*

Davlatimizning muvaffaqiyatlari – xalqimizning baxti.

\*\*\*

Mustaqillik – mustaqil fikrlashni talab qiladi.

\*\*\*

Har bir inson uchun o‘z Vatani muqaddasdir.

\*\*\*

Ona yurt – oltin beshik.

\*\*\*

Ayrilmagin elingdan,

Quvvat ketar belingdan.

\*\*\*

Vatanni bilim va mehnat obod qiladi.

\*\*\*

Eli baquvvatning – beli baquvvat.

\*\*\*

Vatanni sevish va qadrlash unga qilinayotgan fidokorlikda namoyon bo‘lib boradi.

\*\*\*

Vatanning tinchligi – osoyishtaligi va obodonligidir.

\*\*\*

Odamning ildizi o‘z Vatanida, xorijga ketganlar sun’iy yashaydilar.

\*\*\*

Vatan taqdiri – har bir kishining taqdiri.

\*\*\*

Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf.

\*\*\*

Vatanga halokat – o‘zingga halokat.

\*\*\*

Vatanparvarlik – ota-bobolardan bizga qolgan meros.

\*\*\*

Muhojir – bir umrga Vatanidan qarzdor.

\*\*\*

Vatandan yiroqlashgan – nomusdan o‘lar.

\*\*\*

Sotqin – Vatanni sotish bilan o‘z avlod-ajdodlarining hokini ham pullaydigan nokasdir.

\*\*\*

Begona tuproq – devona tuproq.

\*\*\*

Josus – Vatan jismiga bolta uruvchidir.

\*\*\*

Vatanpurush – boshqa yurtga ham vafo qilmaydi.

\*\*\*

Vatan gadosi – kafan gadosi.

\*\*\*

Birovning yurtida bek bo‘lguncha,  
O‘zingning yurtingda it bo‘l.

\*\*\*

Elini tanimagan er bo‘lmas.

\*\*\*

Vatan mudofaasi uchun halok bo‘lganlar xalqining yuragida  
mangu barhayotdirlar.

\*\*\*

Vatan qudratining taqdiri – yosh avlod qo‘lida.

\*\*\*

Insonda Vatan va unga mehr bo‘lishi, or nomus ishidir.

\*\*\*

O‘zini tanigan odam Vatanini xor qilmaydi.

\*\*\*

Vatani borning baxti bor.

Mehnati borning – taxti.

\*\*\*

Vatan tinch – sen tinch.

\*\*\*

Vatanni sotgan er bo‘lmas.

\*\*\*

Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

\*\*\*

Dushmanga nfrati bo‘limganning

Vatanga muhabbatি bo‘lmas.

\*\*\*

Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar,  
Yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.

\*\*\*

Non gadosi bo‘lsang ham,

Yurt gadosi bo‘lma.

\*\*\*

Ona yerning tuprog‘i – ona sutidan aziz.

\*\*\*

Tug‘ilgan yering – Vataning,

Vataning - nomusing.

\*\*\*

El bor bo'lsa, er xor bo'lmas,  
Er bor bo'lsa, el xor bo'lmas.

\*\*\*

El boshiga tushgani –  
Er boshiga tushgani.

\*\*\*

El kuyunganda kuyungan – botir,  
El suyunganda suyungan – botir.

\*\*\*

El qudrati – chin qudrat,  
Vatan tuprog'i – qimmat.

\*\*\*

El g'amini bilgan elda doston.

\*\*\*

Elga xizmat – olivy himmat.

\*\*\*

Elga qo'shilgan moy yutar,  
Eldan ayrilgan qon yutar.

\*\*\*

Elga qo'shilsang, er bo'lasan,  
Eldan ajralsang, yer bo'lasan.

\*\*\*

Eldan ajralguncha, jondan ayril.

\*\*\*

Elim boshqa degan, el bo'lmas.

\*\*\*

Ellik yilda el yangi.

\*\*\*

Elning baxti – arning baxti.

\*\*\*

Elning ichi – oltin beshik.

\*\*\*

Er yigit o'zi uchun tug'ilalar,  
Eli uchun o'lar.

\*\*\*

Erning moli – elning moli.

\*\*\*

Yurt egasi yo'larchdir,  
Oldirgani qo'ymasdir.

\*\*\*

Yurt qo'ri, eling o'sar,  
Qo'rimasang, uying to'zar.

\*\*\*

Yurti boyning o'zi boy.

\*\*\*

Yurtim – ko'ksim,  
Elim – iligim.

\*\*\*

Yurtni dedim, yuzga kirdim.

\*\*\*

Yaxshi yigit yurt tuzar,  
Yomon yigit yurt buzar.

\*\*\*

O'z yurtingning qadri  
O'zga yurtda bilinar.

\*\*\*

O'zga yurtning gulidan,  
O'z yurtingning cho'li yaxshi.

\*\*\*

O'lsang o'l,  
Vataningda bo'l.

\*\*\*

Qurigan yurtga qul oqsoqol.

\*\*\*

Qush butaga sig'inar,  
Odam – Vatanga.

\*\*\*

Vatanning osoyishtaligi otalar adolati-yu, farzandlar jasoratida.

\*\*\*

Mamlakatning husni – o'sha mamlakat fuqarolarining qo'lida.

\*\*\*

Vatanini qo'riqlay olmagan odam – o'z yurtida musofirdek yashashga majbur.

\*\*\*

Vatan xiyonatni kechirmaydi.

\*\*\*

Vatan bog'iga ilon aralashmasin!

\*\*\*

## V & VATAN POSBONLARI

Jangchi – xalq farzandi, chunki u xalq onasi bo‘lmish Vatanni himoya qiladi.

\*\*\*

Vatanga sodiqlik – muqaddas burch.

\*\*\*

Harbiy mahorat – chiniqishdan hosil bo‘ladi.

\*\*\*

Harbiy ta’lim jasorat va mardlik maktabidir.

\*\*\*

Harbiy xizmatni o‘tash – yigitlikning kamolotidir.

\*\*\*

Vatanning bayrog‘i – askarning vijdonidir.

\*\*\*

Vatanini qo‘riqlamaganlar – o‘z yurtida qulga aylanadi.

\*\*\*

Mashq – g‘alabalar omili

\*\*\*

Jasorat – yigitning sifati.

\*\*\*

Qo‘sish – Vatan xavfsizligi, obodonligi va iftixoridir.

\*\*\*

Sadoqatli farzand – Vatan uchun qurbon bo‘lishdan qo‘rqmaydi.

\*\*\*

Vatanni himoya qilish ilmini bilish – har bir yigit uchun farzdir.

\*\*\*

Vatan xavfsizligi posboniga bog‘liq.

\*\*\*

Bahodirlilik o‘limga chap beradi.

\*\*\*

Bahodirlilik – jangchining hamrohi.

\*\*\*

Qahramon jangchidan o‘q hazar qiladi.

\*\*\*

O‘z qurolini yaxshi bilgan askar dushmanidan qo‘rqmaydi.

\*\*\*

Askar o‘zidan ko‘ra o‘rtog‘ining g‘amini ko‘proq yeydi.

\*\*\*

Urushda halok bo‘lgan askar elining sha’nini va hurmatini saqlab qolgan bahodirdir.

\*\*\*

O‘g‘ilning jasorati – ota-onaning quvonchi va baxti.

\*\*\*

Yigit – or-nomus qo‘riqchisi.

\*\*\*

Yigit armiyada xizmat qilsa, xizmatining tarbiyasi uning butun umriga xizmat qiladi.

\*\*\*

Jangchi – xalqi baxtining posboni, vatanni har bir avlod asragan va asraydi.

\*\*\*

Armiya – hammaning farzandi.

\*\*\*

Mard – Vatanni oyoq osti qildirmaydi.

\*\*\*

Sotqin – o‘zinikilar orasida begona.

\*\*\*

Qo‘rroqning xotiniga qaraganda, jasurning bevasi baxtli.

\*\*\*

Aybiga iqror mard kishi, yashirmoq – qo‘rroq ishi.

\*\*\*

Go‘ngqarg‘a bo‘lib ming yil yashagandan, sher bo‘lib bir yil yashagan afzal.

\*\*\*

Do‘s<sup>t</sup> kulfatda sinalar, mard – kurashda.

\*\*\*

Yomon odam yovdan qochar, nomard odam siring ochar.

\*\*\*

Ziyarakning aqli tosh yorar, nomardning mushti bosh yorar.

\*\*\*

Ilikni mard qoqib, nomard yemasin.

\*\*\*

Yigitga yig‘i yarashmas.

\*\*\*

Yigitni bir so‘zlik bezar.

\*\*\*

Yiqilsang kuchlidan yiqil.

\*\*\*

Yo‘lbars, tulki izidan yurmas.

\*\*\*

Kallangni olsa, mard olsin.

\*\*\*

Kurashda otangni ayama.

\*\*\*

Mard aytmas, aytса qaytmas.

\*\*\*

Mard berib xursand bo‘lar, nomard – olib.

\*\*\*

Mard bilan gurunglashgan mard bo‘lar.

Nomard bilan xiringlashgan past bo‘lar.

\*\*\*

Mard bir marta o‘lar, nomard – yuz marta.

\*\*\*

Mard boshini qilich kesmas.

\*\*\*

Mard ishi – mard, nomard ishi – dard.

\*\*\*

Mard yigit izini sotar, nomard yigit – o‘zini.

\*\*\*

Mard maydonda bilinar, nomard – ishda.

\*\*\*

Mard mardni deydi, nomard – nomardni.

\*\*\*

Mard nomarga tiz cho‘kmas.

\*\*\*

Mard tuzar, nomard buzar.

\*\*\*

Mard o‘lar, nomi qolar.

\*\*\*

Mard qiyinni yengar, nomard bo‘yin egar.

\*\*\*

Mardan ot qolur, nomarddan – dod.

\*\*\*

Mardlik yiqitmoq emas, turg‘izmoq.

\*\*\*

Mardlik – kishining husni.

\*\*\*

Mardlik – mangulik.

\*\*\*

Mardni mehnat yengaolmas.

\*\*\*

Mardning o‘ligi – nomardning tirigi.

\*\*\*

Maslahatni marddan so‘ra.

\*\*\*

Mergan ovda kerak, mardlik – yovda.

\*\*\*

Noligan – nomard, bir gapirgan – mard.

\*\*\*

Nomard dushman ko‘rsa, g‘ussadan o‘lar.

\*\*\*

Nomard do‘stdan mard dushman yaxshi.

\*\*\*

Nomard yovga yalinar, mard kuchiga suyanar.

\*\*\*

Nomardda nomus bo‘lmas.

\*\*\*

Ot kuchini karvonda ko‘r, mard kuchini – maydonda.

\*\*\*

Ur deganda nomard qochar, mard qolar maydon ichida.

\*\*\*

Urishsang, mard bilan urush.

\*\*\*

Yuz nomarddan yuz qaytar, bir mardni har kim maqtar.

\*\*\*

O‘z aybini bilgan mard.

\*\*\*

Qo‘lingni ber, mard bo‘lsang, qocha ber, nomard bo‘lsang.

\*\*\*

Yaxshilikka yaxshilik – har kishining ishidir.

Yomonlikka yaxshilik – mard kishining ishidir.

## **VI &. BURCH**

Burch – hayotning mazmuni.

\*\*\*

Burchi yo‘qning – burdi yo‘q.

\*\*\*

Burchni sezish – onglilikdir.

\*\*\*

Huquq bilan burch – insonning ikki qanotidir. Ularning biri unitilsa, hayot mayiblanadi.

\*\*\*

Huquqini bilib, burchini bilmaslik – tekinxo‘rlikdir.

\*\*\*

Anjir daraxti – egri-bungi bo‘lsa-da, burchim deb shirin mevalar beradi.

\*\*\*

Soflikni saqlash – vijdonning burchidir.

\*\*\*

Burchini muqaddas bilgan odam – taftishlardan qo‘rqmaydi.

\*\*\*

Umri qisqaligiga qaramay bol ari sadoqat bilan burch o‘taydi. Shuning uchun ham bol – ming dardga davodir.

\*\*\*

Ota-onani hurmatlash va qadrlash burchi – tug‘ilgandan o‘lgunchadir.

\*\*\*

Yoshi kattalarни hurmatlash burchi – yoshlarga azizlik keltiradi.

\*\*\*

Bolalar kattalar oldida burchdor, kattalar esa bolalar oldida burchdordir.

\*\*\*

Har bir odam – o‘z burchining quli.

\*\*\*

Burchni ado etish va unga sodiqlik farzdir.

\*\*\*

Burch tilning ham, dilning ham tarozisi.

\*\*\*

Insonni qadrlash – odamiylik burchi.

\*\*\*

Daraxt yerdan olgan ozuqasini kuzda barglarini to'kib berish bilan qaytaradi.

\*\*\*

Tabiat va insoniyatga g'amxo'rlik – insoniy burchdir.

\*\*\*

Ilm insonni irodali qiladi.

\*\*\*

Chuqur fikrli odamning irodasi kuchli bo'ladi.

\*\*\*

Aql – baxt darvozasining kaliti.

\*\*\*

Hayotda to'g'ri yo'l tanlash – aqlga bog'liq.

\*\*\*

Hayot uyini aql chirog'i yoritgandir.

\*\*\*

Bir dononing ishini – yuz nodon qilaolmaydi.

\*\*\*

Aqlu zakovatga yerusmon bo'ysunadi.

\*\*\*

Odamning barcha a'zolari aqlga bo'ysungandir.

\*\*\*

Odamning aqli har qanday yovuzlikni zarjirband qila oladi.

\*\*\*

Qalb xohishiga – aql murabbiy.

\*\*\*

Tafakkur – insonning asosiy qurolidir.

\*\*\*

Aqli – muhtoj kunga qolmaydi.

\*\*\*

Shunday insonlar borki, ularning aql bilan qilgan ishlari dunyoniga soladi.

\*\*\*

Jismoniy kuchdan aql kuchi zo'rroqdir.

\*\*\*

Inson qarigan sari aqli yosharadi.

\*\*\*

Aql – xazina, uning kaliti – til.

\*\*\*

Omadi kelsa, sichqon filni yengar.

\*\*\*

Yaroqliga yov yo'liqmas.

\*\*\*

Bilmaganga bit o'ldirish qiyin.

\*\*\*

Kuchangan bilan qo'l qavarmas, baqirgan bilan bir ish bitmas.

\*\*\*

Turib o'lguncha, urib o'l.

\*\*\*

Sudralgan kaltak yer.

\*\*\*

Tavakkal tog'ni yiqrar.

\*\*\*

Tuyani kattasi ko'prikda tayoq yer.

\*\*\*

O'rgimchakdek o'ralma, bedanadek yo'rg'ala.

\*\*\*

Bo'ri oriqligini bildirmas.

\*\*\*

Jang qurbonsiz bo'lmas.

\*\*\*

Sabr – achchiq, mevusi – shirin.

\*\*\*

Sabr -- yutuq kaliti.

\*\*\*

Sabr etgan yetar murodga, besabr qolar uyatga.

\*\*\*

Sovun kirni ochar, sabrsiz – sirin.

\*\*\*

Qo'rqandan, hovliqqan yomon.

\*\*\*

Ot qadrini bilmasa, yayov ko'rар jazosin, el qadrini bilmasa, yovlar berar jazosin.

\*\*\*

Xo'rlik o'limdan yomon.

\*\*\*

Ota – aql, ona – idrok.

Ota – bilak, ona – yurak.

\*\*\*

Arpa iitiqsiz bo‘lmas, navkar – miltiqsiz.

\*\*\*

Toy qoqilib ot bo‘lar, ot bo‘lguncha lat yeyar.

\*\*\*

Umidingni uzma, ko‘nglingni buzma.

\*\*\*

Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan.

\*\*\*

Quyosh botsa, yana chiqar.

\*\*\*

Har kimning niyati – o‘z yo‘ldoshi.

\*\*\*

Jasurni jangda, donishmandni – g‘azablanganda, do‘sni muhtojlikda sina.

\*\*\*

Ikki quloqdan ko‘ra, bir ko‘zga ko‘proq ishon.

\*\*\*

Ko‘ngilga kelgan qo‘ldan kelsa, bitmaydigan ish qolmas.

\*\*\*

Maslahat zardan – qimmat.

\*\*\*

Qadr bilgan qarindosh, mard bo‘lishga ko‘ndirar.

Er boshiga ish tushsa, suyab otga indirar.

\*\*\*

Qovun ichidan iriydi.

\*\*\*

Sha’n shavkat istasang, sharmandalik yo‘ldan qayt.

\*\*\*

“Nimani o‘qiding?” deb so‘rama, “Nimani bilding?” deb so‘ra.

\*\*\*

Ikki marta o‘lmaysan, bir martasidan qochib qutulmaysan.

\*\*\*

Mingta shirin maslahatdan bitta o‘rnak ish yaxshi.

\*\*\*

Daryoni bir kesak bilan loyqalata olmaysan.

\*\*\*

Do‘sting ming bo‘lsa ham – oz,

Dushmaning bir bo‘lsa ham – ko‘p.

\*\*\*

Sichqonga mushuk arslon bo‘lib ko‘rinar.

\*\*\*

O‘yqu o‘lim bilan teng.

\*\*\*

Qurolda qirq kishining kuchi bor.

\*\*\*

Qurol-yarog‘siz sarboz – dumsiz, oyoqsiz g‘oz.

\*\*\*

O‘z joyida laycha ham sher.

\*\*\*

Jag‘likka jag‘ bo‘lguncha, aqlilikka qul bo‘l.

\*\*\*

Mol semirsa – foyda, odam semirsa – ziyon.

\*\*\*

Obro‘ni izlashdan ish ko‘rsatgan afzal.

\*\*\*

Otasini og‘ritgan, el ichida xor bo‘lar,  
Onasini og‘ritgan, parcha nonga zor bo‘lar.

\*\*\*

Boshliq bo‘lish oson, boshlamoq qiyin.

\*\*\*

Intizomli lashkar yengilmas.

\*\*\*

Otni sinash oson, odamni sinash qiyin.

\*\*\*

Toyni boqsang, ot qilasan, yovni quvsang mot qilasan.

\*\*\*

Tilni bilish – dilni bilish.

\*\*\*

Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘lar.

\*\*\*

Quyon qopqoni bilan arslonni ovlab bo‘imas.

\*\*\*

Vaqt – omad

\*\*\*

Oldingda yetakching bo‘sin, orqangda – tayanching.

\*\*\*

Ot bo‘imasang, nima qilasan kishnab, eshak bo‘imasang, nima qilasan hangrab.

\*\*\*

Aytilmagan sir – dilingni siri.

Aytgandan so‘ng sen – sirming asiri.

\*\*\*

Achchiq kelsa, aql ketar, aql kelsa – achchiq.

\*\*\*

Balo ko‘zga ko‘rinmas, xato qo‘lga ilinmas.

\*\*\*

Bilgandan bilmaganing ko‘p, ko‘rgandan – ko‘rmaganing.

\*\*\*

Buqa shoxidan ilinar, odam – tilidan.

\*\*\*

Bo‘rini to‘q dema, dushmanni yo‘q dema.

\*\*\*

Gap bir aytildi, qilich bir chopiladi.

\*\*\*

Dushman bitta bo‘lsa ham ehtiyot bo‘l.

\*\*\*

Dushmaning sichqoncha bo‘lsa ham, kuching arsloncha bo‘lsin.

\*\*\*

Dushmaning uchta bo‘lsa, ikkitasi bilan do‘s tuutin.

Dushmaning ikkita bo‘lsa, bittasi bilan do‘s bo‘l.

\*\*\*

Dushmanga shakar berib jonini ol.

\*\*\*

Dushmanni kuchsiz dema, kuchim ko‘p uchsiz dema.

\*\*\*

Dushmanning sovg‘asidan qo‘rq, mug‘ambirning – navhasidan.

\*\*\*

Do‘sting ham – til, dushmaning ham – til.

\*\*\*

Do‘stingga do‘s bo‘l, dushmanninga – ziyrak.

\*\*\*

Do‘stinga hazil qilma, oqibati urush, dushmaningning maqsadi ahvolingdan kulish.

\*\*\*

Ikkov oldida bilib ay, uchov oldida o‘ylab ayt.

\*\*\*

Mol o‘g‘risidan qo‘rqma, so‘z o‘g‘risidan qo‘rq.

\*\*\*

Sen bo‘rini ayasang, bo‘ri seni talar.

\*\*\*

Sinalmagan farishtadan, sinalgan shayton yaxshi.

\*\*\*

Sir beruvchi bo‘lma, sir oluvchi bo‘l.

\*\*\*

Sirni sukut saqlar.

\*\*\*

Tilini tiygan boshini qutqarar.

\*\*\*

Xushyorliging – tinchliging, beg‘amliging – o‘lganining.

\*\*\*

Xushyorlik – umr posboni.

\*\*\*

Tirikligida siylamasang, o‘lganida yig‘lama.

\*\*\*

Sovuq oyoqdan urar, issiq – boshdan.

\*\*\*

Zo‘ravonlik – oxiri vayronlik.

\*\*\*

Zo‘rlilikning so‘nggi – xo‘rlik.

\*\*\*

## VII &. ARMIYA VA HARBIYLAR

Birovlarga bo'yruq berishdan oldin o'zing bo'y so'nishni o'rgan.

Solon

Ayrim holatlarda bo'limgur etikdan ham unutilmas iz qoladi.

Stanislav Yeki Les

Askarlardan birinchi navbatda bardoshlik, matonatlik va chidamlik; jasurlik, mardlik – ikkinchi masala.

Napoleon Bonapart

Yaxshi armiya – yomon armiya. Uni ko'ra olmaydilar.

Lao-Szi

O'z armiyasini boqishni xohlamagan xalq, oxir oqibat begona armiyani boqishga majbur bo'ladi.

Napoleon Bonapart

Eng sara qo'shinlar – oliy va tabiiy tanlab olingan eng so'ngi qo'shindir.

Kasheev Yevgeniy

Xitoy qo'shinlari o'zining yaxshi ko'rgan ta'limi bilan emas, dushman xududida qochoqlik qilishi bilan xavf tug'diradi.

Mixail Mamchich

Urush o'ldirishdir. Qotillik qilish uchun qanchalik ko'p odamlar to'planishib, o'zlarini kim deb atamasinlar, baribir qotillik dunyodagi eng qabih gunohdir.

L.N.Tolstoy

Xalq kimni yaxshi ko'rmasa, uning polklari va pullarining hammasi – kuli ko'kka sovuriladi.

Derjavin G.R.

... biror kuniimizda ham har birimiz o'zimizcha: "Bizlarda bor bo'lgan eng muqaddas narsalar uchun, aslo urush bo'lmasligi kerak" deb takrorlab turish kerak.

Djon Golsuorsi

Jamiyatdagi irim va bid'at, xuddi qo'shindagi qo'rroqlik kabidir, ular o'zlarini shunday his etadilar va boshqalarda ham shu vahimali qo'rqinchni o'yg'otadilar.

Volter

Agarda buyuk sivilizatsiyalar, millatlar o'rtasida o'zaro tinchlik o'rnatilmas ekan, mubolag'asiz aytish mumkinki, urushlarda ishtirok etayotganlarning barchasini va har bir davlatni bir xildagi taqdir kutmoqda, ular abadiyatdan nom-nishonsiz yo'qolib ketadilar.

D.Golsuorsi

Barpo etish, bunyod qilish sevish va g'alaba qozonish uchundir, - barpo qilish, demak tinchlikda yashash. Ammo urush esa barchasini yutqazishga o'rgatadi va biz hech qachon bo'lishni xohlamagan holatda bo'lamiz.

Alber Kamyu

Xushbaxt inson uchun sevgi, muhabbat – mashg'ulot, askar uchun – ko'ngil ovlash, hukmdor uchun – suv ostidagi toshdir.

N.Bonapart

Har bir fransuz askari o'zining to'rvasida marshallikning asosini olib yuradi.

N.Bonapart

Urush, doimo insoniyatga qarshi jinoyat bo'lib kelgan bo'lsa, endi esa tentaklikka ham aylandi.

Djon Desmond Bernal

Davlat teppasida turgan har qanday arbob, kapitan o'z kemasini halokatdan qo'tqarish uchun sa'y-harakt qilganidek, urushlarning oldini olish uning burchidir.

Gi de Mopassan

Muhrdan foydalanib boshqarish uchun albatta qamchin va etikda temir tepki bo'lishi kerak.

N.Bonapart

Eng yaxshi taqdir bu o'z Vatanningni himoya qilishdir.

G.R.Derjavin

Quyon ovlash uchun o'rgatilgan itlarga ega bo'lish kerak, dushmanni mag'lubiyatga uchratish uchun – katta qo'shin darkor: aql-zakovatli kishi hech narsadan hech narsa o'z fuqarolarini sababsiz behudaga o'ldirtiravermaydi.

Grozniy Ivan IV

Xalq o'tkir temirdan iborat bo'lib juda ham xavflidir, inqilob esa – ezgu niyatli kishilar va yovuz niyatliilar uchun tobutdag'i tuynukdir.

N.M.Karamzin

G'alabani harbiy an'at va sarkardalarning jasurligi va askarlarning dovyurakligi hal qiladi. Ularning ko'ksi – vatanni himoyasi va qurg'onidir

Petr I

Daraxt qanday qilib gullashi mumkin, qachonki uning ildizlari qurib qolgan bo'lsa? Bu yerda ham shunday: agarda saltanatda kerakli tartib bo'limasa, harbiy jur'at qaerdan paydo bo'ladi? Agar yetakchi qo'shinni doimiy tarzda mustahkamlab bormasa, g'alabadan ko'ra mag'lub bo'lishi tezroq sodir bo'ladi. Sen esa bularni pisand qilmay, faqat bitta jasorat ko'rsatishni maqtaysan, xolos; jasoratning o'zi nimaga asoslanadi – bu sen uchun muhim emas.

Grozniy Ivan IV

Bitta yomon bosh qo'mondan ikkita yaxshisidan ko'ra tuzukroqdir.

N.Bonapart

Pul urushlar arteriyasining mohiyati.

Petr I

Botirlik bilan barcha ishlarni boshlash mumkin, ammo hamima ishlarni ham to'la bajarib bo'lavermaydi.

N.Bonapart

Urush odamlarni yovvoyi hayvonlarga aylantiradi, vaholanki ular og'a-ini bo'lib yashash uchun tug'ilganlar.

Volter

Urush davlat xazinasini tugatib boradi. Mag'lub bo'lganlardan olingen narsalar uni to'ldira oladimi? Qadimgi rimliklardan boshlab, men birorta xalqni, g'alabasining orqasidan boyib ketganini bilmayman.

Volter

Vatanni himoya qilish o'z sha'nini himoya qilishdir.

N.K.Rerix

Ayolni deb xizmatni unutib qo'yish kechirib bo'lmaydigan ish. Uynashni asiriga aylanib qolish, urushda asirga tushgandan ko'ra ham yomonroqdir; dushmanidan qutilib ozod bo'lismumkin, ammo ayollarning kishanidan ozod bo'lismuda qiyindir.

Petr I

Urush olib borish uchun, uchta narsa kerak: pul, pul va yana bir bor pul.

Lyudovik XII Valua

Doimo xalqning kayfiyati bilan hisoblashish kerak. Bu, ayniqsa, biz olib borayotgan urush uchun ahamiyatlidir, qachonki, ma'naviy holatlari va o'zlarini qurbon qilishga shayliklari ma'lum darajada majbur qilishni o'rnni egallashi lozim.

D.Vashington

Vatanparvar armiya va ozod mamlakatda shon-sharafga erishish uchun barchaga yo'llar ochiq.

D.Vashington

Qilich – bizning erkimizni ta'minlaydigan vosita, ammo erkinlikning qat'iy ta'minlanishi bilanoq uni birinchi bo'lib qo'ldan qo'yish kerak.

D.Vashington

Ishonchim komilki, erkinlikdek bebaho bo'lgan ne'matni himoya qilish uchun hech kim quroqla yopishmaslik kerakligini biror soniyaga ham ikkilanmasligi kerak, chunki, unga hayotdagi ezzulik ham, yomonlik bog'liq, ammo aytishim mumkinki, qurol bu so'nggi vosita bo'lib qolishi kerak.

D.Vashington

Qo'rroq, biladi, agarda qochoqlik qilsa uni o'lim kutadi, shuning uchun ham tavakkal qilib jangga boradi.

D.Vashington

Intizom – armiyaning qalbi. Ko'p bo'limgan qo'shinni qudratli kuchga aylantiradi, ojizlarga g'alaba va barchaga hurmat olib keladi.

D.Vashington

Prokladırvat sebe dorogu siloy.

Gay Yuliy sezar

Kuch bilan o'zingga yo'l ochmog'ing kerak.

Eng mardonavor davlat shudirki, unda jasorat taqdirlanadi va eng yaxshisi qo'rroqlik jazolanadi.

Klod Adrian Gelvesiy

Buyuk ishlarni hattoki ham o'ylab o'tirmasdan boshlab yuborish kerak, bo'lmasa, biror qiyinchilikni sezib qolib, chekina boshlaysan.

Gay Yuliy sezar

Xiyonatni yoqtiraman, ammo sotqinlarni emas.

Gay Yuliy Sezar

Menga butun Yevropani boshini qovushtirish osonroq, bir qancha ayollarni kelishtirishdan ko'ra.

de Bourbon Lyudovik XIV

Avvalombor jiddiy jangga kirishish kerak, u yog'i keyin o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

N.Bonapart

Sherlar boshqaradigan qo'ylar qo'shini doimo qo'ylar boshqaradigan sherlar qo'shini ustidan g'alaba qozonib kelgan.

N.Bonapart

Generallar doimo o'tgan urushlarga tayyorlanadilar.

Uinston Cherchill

Urush vaqtida haqiqat juda ham qadrii bo'ladi, shuning uchun ham uni yolg'onlar qorovullashi kerak.

U.Cherchill

Tenglik hech qachon urush keltirib chiqarmaydi.

Plutark

Urush – bu ko'pincha katta hisobdagi qo'pol xatolardan iborat bo'ladi.

U.Cherchill

Sizning ta'kidlashingizcha, yaxshi niyat hattoki urushni ham oqlaydi? Men esam: faqat urushga keltirgan manfaatgina har qanday maqsadni oqlaydi.

Fridrix Nisshe

Olim, shoир, harbiy, qonunshunos va hakozolar bo'lish mumkin, ammo bularning barchasida inson bo'lib qola bilish lozim/

V.G.Belinskiy

Noloyiq va razilona zafardan ko'ra munosib va qahramonana o'lim sharaflidir.

D. Bruno

Bir ko'z yoshini quritish – butun boshli dengiz qonini to'kkandan ko'ra shavkatliroqdir.

D.G.Bayron

Tahdid – bu o'zi tahdiddagilarning qo'rolidir.

Djovanni Bokkachcho

To'rt holatdag'i ish tugab bo'Imaganicha ma'qullab yoki yomonlab gapirib bo'lmaydi.

Birinchidan, ovqatlanayotganda, u oshqozonga tushib xazm bo'Imaganacha.

Ikkinchidan, homilador ayol haqida, toki u tug'ib bo'Imaganicha.

Uchinchidan, jasur haqida, qachonki u jang maydonini tashlab chiqmaganicha.

To'rtinchidan, dehqon hosilini yig'ib terib olmaganicha.

Muhammad ibn Ali As-Samarqandiy

Inqilob – o'tmish hayotning yakuni, yangi hayotning boshlanishi emas, balki uzoq bosib o'tilgan yo'l uchun to'lovdir. Inqilobda o'tmishning barcha gunohlari yuviladi. Inqilob doimo hokimiyatga ega bo'lganlar o'zlariga yuklangan vazifalarini bajarmadilar deydi.

Nikolay Berdyaev

Urush va jasorat yaqin kishingga ko'rsatiladigan muhabbatdan ko'ra, ko'proq buyuk ishlarni amalga oshiradi.

Fridrix Nisshe

Xalqqa inqiloblarda erkin bo'lgandek tuyuladi, bu – qo'rqinchli o'z-o'zini aldashdan boshqa narsa emas, U – yashirin ofatlarning quli... Inqiloblarda erkinlik bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas, inqilob o'z ruhi bilan har qanday erkinlikka dushmandir.

Inqilob... inson bilan, kasallik, baxtsizlik, tabiiy ofat, yong'in yoki suv toshqinlari qanday sodir bo'lsa u ham shunday sodir bo'ladi.

N.Berdyaev

Barcha inqiloblar reaksiyalar bilan tugagan. Bu – qaytarib bo'lmaydigan, muqarrar bo'ladigan hodisa. Bu – qonun. Inqilob qanchalik shiddatli va qattiq bo'lsa, reaksiya ham shunchalik kuchli bo'ladi. Inqilob va reaksiyalar almashinuvida qandaydir sehrli doira mavjud.

N.Berdyaev

O'z kamchiligini yashira bilish va uni fazilatga aylantira olish ham san'at. sezar o'zining tepakalligini boshiga lavrli gulchambar kiyish bilan bekitar edi.

Baltasar Grasian

Har qanday bajrilmagan va'da -- bu suvsiz bulut, qayralmagan qilich va hosilsiz daraxtdir.

Muhammad ibn Ali As-Samarqandiy

Sen shahar darvozasini bekitishing mumkin, ammo dushman og'zini bekita olmaysan.

Mirzo Bobur

Agarda biz urushlarni tugatmasak, unda urushlar bizni tugatadi.

Gerbert Djordj Uells

San'at va adabiyotning asosida pul turganidek, urushning asosida ham pul yotadi.

Semyuel Batler

Dushman bilan kelishish faqat kurashdan charchaganlikni, mag'lubiyatga uchrab qolishdan qo'rquvni va yanada yaxshiroq pozitsiyani egallash istagini bildiradi.

Fransua de Laroshfuko

Adabiyot xalqning dahshatli quroliga aylanishi kerak xuddi yashindek, oddiy xuddi nondek.

J.Amadu

Quvonchdan minalashtirilgan maydondagi minalar porlatilmasidan sakrash qat'iyan taqiqlanadi.

Har qanday ishni uch usulda bajarish mumkin: to'g'ri, noto'g'ri va arimiyyachasiga.

Amerikacha hikmat. Urushni boshlash oson, ammo uni zafarli tugatish qiyin.

Kim dushmanga yaxshilikcha munosabatda bo'lar ekan, demak u o'zining hayotini qadrlamaydi.

Yaratish – yaxshi, yo'q qilgandan ko'ra, sovg'a qilish – yaxshi, olgandan ko'ra.

A. V. Suvorov

Mehnat ishning natijasiga qarab baholanadi, to'plangan charchoqlarga qarab emas!

Sen bosiqlik vaqtingda – sen vaqtning egasisan, sen hayajonlangan vaqtingda yoki shoshilganingda vaqt senning egang, sen esa uning qulisan!

Kim kulayotgan bo'lsa, u doimo jiddiy yuradigan kishilardan ko'ra ma'nан kuchlidir.

Raqibingni yutug'iga birga qo'shilib quvon – uning yutug'i sening yutug'ingga aylanadi, raqibingga hasad qilsang – uning yutug'i sening muvaffaqiyatsizliging bo'ladi.

Qisqa muddatli maqsadlar mayda ishlarga tortadi, uzoq muddatli maqsadlar esa – buyuk ishlarni boshlaydi.

Buyuk kuchlar – faqat buyuk maqsadlar uchundir.

A. V. Suvorov

Kim barchaga taalluqli bo'lsa, u hech kimga taalluqli bo'lmaydi,  
hattoki o'ziga ham!

A. V. Suvorov

Men haqiqatni qanday bo'lsa, shundayligicha yoqtiraman.

A. V. Suvorov

Jang borayotgan vaqtda – sog'larni qo'tqar, yaradorlarni boshqalar  
terib oladilar. Dushmanni yer tishlatganingda – barcha yengil tortadi:  
yaradorlar ham sog'lar ham.

Qanchalik og'ir bo'lsa ham, hech ham umidingni uzma, kuching  
bor ekan, o'zingni dadil tut.

Insonlarga iltifotli bo'lish - ularga baxt tilashdir.

Jangda navbat yo'q, bo'lmaydi ham, faqat qo'llab-quvvatlash bor,  
dushmanni yenga olsanggina, shunda xizmat tugaydi, xolos.

Himmatsiz shuhrat ham, shon-sharaf ham bo'lmaydi.

A. V. Suvorov

O'limdan qo'rqlama, o'shanda ehtimol g'alaba qozonishing  
mumkin bo'ladi. Ikki o'lim yo'q, o'lim bitta bo'ladi, uni esa hech ham  
aylanib o'tib bo'lmaydi.

A. V. Suvorov

Kim qo'rqqan bo'lsa – demak yarimga o'ldirilgan bo'ladi.

Pifagor

## VIII &. ARBIY AFORIZMLAR

Hikmatli so‘z – bu komediya bo‘lib, lahzalardagi ifodalananishdir.

Karel Chapek

Doimo birinchi qatorda bo‘l, mumkin qadar o‘zingni ichki kalamushlariningdan yiroqroq bo‘lsang bo‘lgani.

Stanislav Yeki Les

Askarlardan birinchi navbatda bardosh, matonatlik va chidamlik: jasurlik talab qilinadi, mardlik – ikkinchi masala.

N.Bonapart

Yaxshi armiya – aslida yomon armiya. Uni ko‘proq yomon ko‘rishadi, nafratlanishadi.

Lao-Szby

O‘z armiyasini boqishni xohlamagan xalq, oxir oqibat begona armiyani boqishga majbur bo‘ladi.

N.Bonapart

Eng sara qo‘sishinlar – oliv va tabiiy tanlab olingan eng so‘ng: qo‘shindir.

Yevgeniy Kacheev

Urush o‘ldirishdir. Qotillik qilish uchun qanchalik ko‘p odamlar to‘planishib, o‘zlarini kim deb atamasinlar, baribir qotillik dunyodagi eng qabih gunohdir.

F. Volter

Urushdan erkin bo‘lgan tinchlik zamondagina, insoniyat tarixida birinchi marta insonlarning mehnati va bilimlari ularning ehtiyojlarini to‘liq qondirishga xizmat qiladi.

Djon Desmond Bernal

Jamiyatdagi irim va bid'at, xuddi qo'shindagi qo'rqoqlik kabitidir, ular o'zlarini shunday his etadilar va boshqalarda ham shu vahimali qo'rqinchni o'yg'otadilar.

F.Volter

Agarda buyuk sivilizatsiyalar, millatlar o'rtasida o'zaro tinchlik o'rnatilmas ekan, mubolag'asiz aytish mumkinki, urushlarda ishtirok etayotganlarning barchasini va har bir davlatni bir xildagi taqdir kutmoqda, ular abadiyatdan nom-nishonsiz yo'qolib ketadilar.

D.Golsuorsi

Barpo etish, bunyod qilish sevish va g'alaba qozonish uchundir, - barpo qilish, demak tinchlikda yashash. Ammo urush esa barchasini yutqazishga o'rgatadi va biz hech qachon bo'lishni xohlamagan holatda bo'lamiz.

A.Kamyu

Har bir fransuz askari o'zining to'rvasida marshallik alomati bo'lgan asoni olibyuradi.

N.Bonapart

Urush, doimo insoniyatga qarshi jinoyat bo'lib kelgan bo'lsa, endi esa tentaklikka aylana..

Djon Desmond Bernal

Davlat teppasida turgan har qanday arbob, kapitan o'z kemasini halokatdan qo'tqarish uchun sa'y-harakt qilganidek, urushlarning oldini olish uning burchidir.

Gi de Mopassan

Eng yaxshi taqdir bu o'zingni Vatanningni himoya qilishdir.

G.R.Derjavin

G'alabani sarkardalarning harbiy san'ati va qahramonligi hamda askarlarning dovyurakligi hal etadi. Ularning ko'kraklari – ona-Vatanning himoyasi va qalqonlaridir.

Petr I

Miltiq nayzasi bilan hamma narsa qilsa bo'ladi; ammo unga o'tirib bo'lmaydi.

N.Bonapart

Yovvoyi hayvonlar ortidan xohlaganingcha yuguraver: bu ish men uchun emas. Men davlatdan tashqarida mard yovni quvishim kerak, davlatimni esa yovvoyi va matonatli fuqarolarim bezaydi.

Petr I

Jasurlik bilan barcha ishga kirishish mumkin, ammo hamma ishni bajarib bo'lmaydi.

N.Bonapart

Tinchlik – yaxshi, ammo hech ham mudrashga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki qo'llaringni bog'lab tashlaydilar, yana askarlar ayollarga aylanib qolmaslliklari kerak.

Petr I

Urush birodar bo'lib yashashlari uchun tug'ilgan insonlarni yovvoyi hayvonlarga aylantirib yuboradi.

Volter

Urush albatta davlat xazinasini tamom qiladi. Mag'lub bo'lgan tomondan olingan narsalar uning o'rmini to'ldira oldimi? Qadimgi rimliklardan boshlab, biror xalqning g'alaba ortidan boyib ketganini bilmayman.

Volter

Ayollarni deb xizmat unutib qo'yish kechirib bo'lmaydigan ish. O'ynashning asiri bo'lish, urushda asir bo'lishdan yomon; dushmanidan ozodlikka chiqish mumkin, ammo ayollarning kishanlashi uzoq davomlidir.

Petr I

Amerikaliklarning tashabbusi, xuddi “tuxum pishirish uchun uyningni yoqib pishiri-shing” kerakdek gap bo‘lyapti. (Raketaga qarshi himoya qo‘sishlari tizimini yaratish haqidagi gaplar).

V.V.Putin

Urush olib borish uchun, uchta narsa kerak bo‘ladi: pul, pul va yana pul.

Lyudovik XII Valua

Biz ularga insoparvarlik yordamini ... qurollar bilan beramiz.

Aleksandr Lukashenko

Doimo xalqning kayfiyati bilan hisoblashish kerak bo‘ladi. Biz yuritayotgan urushda, ayniqsa, muhimdir, qaerdakim, axloqiy ruh va o‘zini o‘zi qurban qilishga tayyorligi majburiyligini almashtirishi mumkin bo‘ladi.

D.Vashington

Agarda kishining bosh kiyimi va etigi bo‘lsa, demak o‘ziga o‘zi ichkilikni va uning gazagini ta’minlay oladi deb tushunsa bo‘ladi.

V.Putin

Vatanparvar armiya va erkin vatanda barcha uchun shon sharaf yo‘llari ochiq.

D.Vashington

Erkinlik uchun kurashganda, biz ehtiyyotkor bo‘lib, boshqalarning vijdon erkinliklarini buzmasligimiz kerak, buni doimo unutmasligimiz kerakki, Xudo – barcha kishilar yuraklarining odil hakamidir.

D.Vashington

Intizom – armiyaning qalbi. Ko‘p bo‘Imagan qo‘sinni qudratli kuchga aylantiradi, ojizlarga g‘alaba va barchaga hurmat olib keladi.

D.Vashington

Kuch bilan o‘zingga yo‘l ochmog‘ing kerak.

Gay Yuliy sezar

Buyuk ishlarni hattoki o'ylab ham o'tirmasdan boshlab yuborish kerak, bo'lmasa, biror qiyinchilikni sezib qolib, chekina boshlaysan.

Yuliy sezar

Urush vaqtida haqiqat juda ham qadrli bo'ladi, shuning uchun ham uni yolg'onlar qorovullashi kerak.

U.Cherchill

Tenglik hech qachon urush keltirib chiqarmaydi.

Plutarx

Urush – bu ko'pincha katta hisobdagi qo'pol xatolardan iborat bo'ladi.

U.Cherchill

Urush qanchalik dahshatli bo'lmasin, baribir unda inson ma'naviyatining o'ziga xos buyukligi namoyon bo'ladi, u o'zining nasliy dushmani bo'lgan o'limga qarshi tik boradi.

Genrix Geyne

Sizning ta'kidlashingizcha, ezgu maqsad urushni oqlaydi? Men esa sizga: faqat urushning ezgusigina har qanday maqsadni oqlaydi, xolos deyman.

F.Nisshe

Olim, shoir, harbiy, qonunshunos va hakozolar bo'lish mumkin, ammo bularning barchasida inson bo'lib qola bilishlik lozim.

V.G.Belinskiy

Noloyiq va razilona zafardan ko'ra munosib va qahramonona o'lim sharaflidir.

Djordano Bruno

Ko'z yoshini quritish – butun boshli dengiz qonini to'kkandan ko'ra ko'proq shavkatliroqdir.

D.G.Bayron

Tahdid – bu o'zi tahdiddagilarning qo'rolidir.

D.Bokkachcho

Urush va jasorat yaqin kishiga bo'lgan sevgiga nisbatan ko'proq buyuk ishlarni amalga oshirgandir.

F.Nisshe

Xalqqa inqiloblarda erkin bo'lgandek tuyuladi, bu – qo'rqinchli o'z-o'zini aldashdan boshqa narsa emas, U – yashirin ofatlarning quli... Inqiloblarda erkinlik bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas, inqilob o'z ruhi bilan har qanday erkinlikka dushmandir. Inqilob... inson bilan, kasallik, baxtsizlik, tabiiy ofat, yong'in yoki suv toshqinlari qanday sodir bo'lsa shunday sodir bo'ladi.

N.Berdyaev

Barcha inqiloblar reaksiyalar bilan tugagan. Bu – qaytarib bo'lmaydigan, muqarrar bo'ladijan hodisa. Bu – qonun. Inqilob qanchalik shiddatli va qattiq bo'lsa, reaksiya ham shunchalik kuchli bo'ladi. Inqilob va reaksiyalar almashinuvida qandaydir sirli doira mavjud.

N.Berdyaev

Devormigina bosh bilan urib teshish mumkin. Boshqa barchasini – faqat quroq bilan.

A. Kumor

O'z kamchiligini yashira bilish va uni fazilatga aylantira olish ham san'at. sezар o'zining tepakalligini boshiga lavrli gulchambar kiyish bilan bekitar edi.

Baltasar Grasian

Har qanday bajrilmagan va'da – bu suvsiz bulut, qayralmagan qilich va hosilsiz daraxtdir.

Muhammad ibn Ali As-Samarqandiy

Sen shahar darvozasini berkitishing mumkin, ammo dushman og'zini berkita olmaysan.

Zahiriddin Muhammad Bobur

San'at va adabiyotning asosida pul turganidek, urushning asosida ham pul yotadi.

Semyuel Batler

Zo'ravonlik – kishilarning mohiyati, zo'ravonlik bilan boydir bizning olamimiz; odam-lar majburliklaridan qo'shniisiga zarar yetkazmaydilar.

Muxammad ibn Ali As-Samarqandiy

Dushman bilan kelishish faqat kurashdan charchaganlikni, mag'lubiyatga uchrab qolishdan qurquvni va yanada yaxshiroq pozitsiyani egallash istagini bildiradi.

Fransua de Laroshfuko

Adabiyot xalqning quroliga aylanishi kerak, u yashindek dahhatli, non singari oddiy bo'lmog'i lozim.

J.Amadu

Xalq o'tkir temirdan iborat bo'lib juda ham xavflidir, inqilob esa – ezgu niyatli kishilar va yovuz niyatliilar uchun tobudagi tuynukdir.

N.M.Karamzin

Ishonchim komilki, erkinlikdek bebahो bo'lgan ne'matni himoya qilish uchun hech kim quronga yopishmaslik kerakligini biror soniyaga ham ikkilanmasligi kerak, chunki, unga hayotdagи ezzulik ham, yomonlikka bog'liq, ammo aytishim mumkinki, qurog'bu so'nggi vosita bo'lib qolishi kerak.

D.Vashington

To‘rt holatdagi ish tugab bo‘lmanicha ma’qullab yoki yomonlab gapirib bo‘lmaydi.

*Birinchidan*, ovqatlanayotganda, u oshqozonga tushib xazm bo‘lmanicha.

*Ikkinchidan*, homilador ayol haqida, toki u tug‘ib bo‘lmanicha.

*Uchinchidan*, jasur haqida, qachonki u jang maydonini tashlab chiqmaganicha.

To‘rtinchidan, dehqon hosilini yig‘ib terib olmaganicha.

Muhammad ibn Ali As-Samarqandiy

Harbiycha qoida: «Buyruq berishni faqat, bo‘ysunishni bilganlar biladi». Bu esa: «Suzishni faqat, cho‘kishni bilganlar biladi» degan bilan tengdir.

Lorens Piter

Harbiy tarbiyada jasorat ko‘rsatish qo‘rqitish yordamida singdiriladi.

T.Kotarbinskiy

Axir askarning belbog‘i, harbiy asirning zanjiridan ko‘ra yengildir.

Duayt Eyzenxauer

Agarda dushman tahdid qilib turmasa, qo‘shin xavf ostida qoladi.

Arkadiy Davidovich

Bolalar askar askar o‘ynaydi. Bu tushunarli. Ammo askarlar nima uchun bolalarni o‘ynaydi?

Karl Kraus

Askar – jonli dunyo evolyusiyasining so‘ngi bo‘g‘ini.

Djon Steynbek

Britaniyalik askar har qanday narsaga qarshi tura oladi, faqat Britaniya mudofaa vazirligiga emas.

Bernard Shou

Ofitser yaxshi qo'mondon bo'la olmaydi, agar o'z boshlig'i dan hech ham qo'rqlmasa.

Bryus Marshall

Bu ofitser ma'lum bir qobiliyatlarga ega, ammo ularni mohirlik bilan yashirib keladi.

Xizmatdagi ofitser — shunday odamki, tinchlik vaqtlarida biz uni boqamiz, harbiy holatlarda esa u bizni harakatdagi armiyaga, frontga yuborish uchun xizmat qiladi.

Gabriel Laub

Jangchining barkmolligi – sinchkovlik va xushyorlik, doimiy jangovar shaylik, talabchanlik va qattiqqo'llik, samimiylilik hamda vazminlikdadir.

Lao-Szi

Hushyor mard kishiga bo'lmas jahon tang, Tulki ovizidan hayiqmas palang.

Abulqosim Firdavsiy

Ishga yaramaydi lashkar qorasi, Mingidan yaxshi bir jangchi sarasi.

Abulqosim Firdavsiy

Hushyorlikdan doim kelar shijoat, Dilovar maqtovga loyiqidir albat.

Abulqosim Firdavsiy

Duch kelsa qaytarib bo'lmaslik balo, Yuzma-yuz tur orqang ko'rsatma aslo.

Abulqosim Firdavsiy

Kimki duch kelgan chog'i xavfu xatar, Tortmasa tap, shu jahonda mo'tabar.

Farididdin Attror

Jangda o'z boshidan xavotir inson, O'zga boshin qo'lga kiritar qachon?

Xusrav Dehlaviy

Nomard o'lar xazinada topmay qut, Mard chiqarar oddiy toshdan ham yoqut.

Xusrav Dehlaviy

Ko'plar molin berib, mardlik qiladi, Mardlar jonin berib, mardlik qiladi.

Abdurahmon Jomiy

Yo'lbars ila sherni yenggan mard kishi, Bo'yin egib tursa, bu hayo ishi.

Abduqodir Bedil

Baniy odam a'zoyi bir badandir, Hammasi bir moya, bir gavhardir. Tanangda bir a'zo gar bo'lsa bemor, Hammasida qolmas sabr ham qaror.

O'zgalar g'amini chekmasa odam, Anga noloyiqdir inson degan nom.

Sa'diiy Sheroziy

Jahon qo'lga kirar ittifoq bo'lsang.

Hofiz Sheroziy

Sen rad etgan kichik bo'lak bilan ham, Hisoblashmay bo'lmas, qo'shilsa boham.

Bir tutam junni yel eltadi oson, Birlashsa bo'ladi namat yo gilam.

Abduqodir Bedil

Ul nusxaki, boshdan-oyoq purma'no, Har xatda nuqtalar birligi paydö.

Ko'pchilik birlashib azim xalq bo'lur, Dengizda sanoqsiz tomchi muhayyo.

Abduqodir Bedil

Ittifoq kuchidan bo'limg'il g'ofil, Birlashib tish toshni sindirar chil-chil.

Abduqodir Bedil

## IX & . VATAN HAQIDA

\*\*\*

Vatanni tark etmoq hazil ish emas, Bu ish uchun har kim tob bermas.

Xoja Samandar Termiziy

\*\*\*

Inson tirik ekan, o‘z Vatani uchun kurashmog‘i kerak.

A.Navoiy

\*\*\*

Har na yaxshilik qilsang, qilki yurt uchun, O‘zingdan orttir-u o‘zgaga bermak uchun.

Haydar Xorazmiy

\*\*\*

Yurtni obod qilaman degan kishi o‘zi obod bo‘ladi.

\*\*\*

Yurtdan chiqish tiriklay go‘rga kirish degan so‘z.

Abdulla Qahhor

\*\*\*

Vatan mening jonu tanim sajdagohimdir.

Abdulla Qahhor

\*\*\*

Vatan bizning valine’matimiz va murabbiyimizdir, har bir valine’mat va murabbiya xizmat qilish lozim, bas, Vatanga xizmat burchdir.

Abdurauf Fitrat

\*\*\*

Odam ersang tashqi suratga berma zeb, Ona yurtingni hamisha ayla zeb.

\*\*\*

Odam ersang ma’ni bil dona-dona, Vatan erur senga ikkinchi ona.

Anbar Otin

\*\*\*

Saqlamoq yovdan Vatanni senga qarz, Qarzni qilmoq ado har kimga farz.

\*\*\*

Qul bo‘lib nomardcha kun ko‘rgan kishi inson emas, Erk uchun,  
xalq uchun qiyalmagan jon-jon emas.

Chustiy

\*\*\*

Vatan muhabbatи, razil yov ustidan g‘alaba qozonish g‘oyasi har  
qanday qiyinchilik-larni bartaraf qiladi.

Oybek

\*\*\*

Ma‘lumki, dunyoda yashagan har bir kishining eng ayamlik,  
qizg‘anib saqlaydigan besh narsasi bordir: birinchisi – joni, keyingilari –  
dini, moli, oilasi, ona Vatanidir.

Alixoto‘ra Sog‘uniy

\*\*\*

Vatanni ona deydilar. Bu ulug‘ gap, tom haqiqat. Axir, bir jo‘ja  
ham ona og‘ushi va issig‘isiz halokatga uchraydi, albatta. Demak, ona-  
Vatan – hayot demakdir, odamning baxti va saodati demakdir, insonning  
iftixori va sevinchi demakdir.

Vohid Zohidov

\*\*\*

Vatanni shod etish uchun ko‘p ko‘p qayg‘uring.

Dilshodi Barno

\*\*\*

Hamisha qahramon bo‘lish mumkin emasdир, lekin hamisha inson  
bo‘lib qolish mumkin.

I.Gyote

\*\*\*

Ma‘rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo‘lida qurbon  
bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

G.Gegel

**X & . MUTAXISSISLARNING NUQTAL- NAZARLARI.  
ZAMONAVIY RAHBAR FAOLIYATINING MA'NAVIY-  
AXLOQIY ASOSLARI**

TOUQBYU QKFB  
kafedrasi dotsenti  
G'aniev A.S.

Mamlakatimiz bosqichma-bosqich o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil qadamlar bilan borayotgan bir vaqtida ayrim rahbar xodimlar faoliyatida o'ziga ammo ko'pchilik rahbarlarga xos kamchiliklar, nuqsonlar va xatolar tez-tez uchrab turibdi. Barcha sohalarda bo'lgani singari, boshqaruv faoliyatining ham o'ziga xos jihatlar mavjuddir.

Hayotda barcha insonlar o'zlarida katta qiziqish uyg'otgan sohalarni tanlab faoliyat ko'rsatishga tayyorgarlik ko'radilar. Har bir san'at turi o'ziga xos, individual jihatlarga tug'ma ega bo'lgan kishilarning orzu-umidlarining ro'yogba chiqishida muhim o'rinn tutadi. Barcha kasblarni egallash uchun birinchi shu kasbga mehr qo'yish, uning sir-asrorlarini o'rganish uchun sabr-toqatli ustozga shogird tushish, o'zingizni qalbingizni egallab olgan kasbga oid bo'lgan barcha bilim, malaka va tajribalar o'zi ustida ishlalagan holda egallash va yanada boyitish yo'lidan borishi kerak bo'ladi. Ta'kidlaganimizdek, san'at turlariga barcha qiziqadi, ammo uning barcha qiyinchiliklariga baprdosh berib, ularni yenga olganchagina san'at olamida keng faoliyat yuritishga erisha oladilar. Pedagog o'qituvchi yetuk ustozlik darajasiga chiqishi uchun kamida yigirma yil uzluksiz mashaqqatli mehnat qilishi lozim. bolalarga mehr qo'yaolgan insonlar o'qituvchilik kasbini tanlaydilar, shuning uchun bu kasb egalarini endigina maktabga qadam qo'ygan yosh bolarning qalbini, ruhini egalla olgan holda ularni o'z izmiga solib insoniylikning ilk bosqichi bo'lgan ma'rifat olamiga boshlab kiradilar. Harf o'rgatish bilan birgalikda oddiy insoniylikning ko'rinishlari bo'lmish salollashish, o'zaro munosabatda bo'lish, boshqalar bilan muomala qilish haqida ilk saboqlarni ularni murg'ak ongi va qalbiga singdiradilar. Shuning uchun ham "Ustozlar bola qalbining me'mori" deydi dono xalq.

## **XI & MA'NAVIY TAHDIDLAR: SALBIY OQIBATLARI VA ULARGA QARSHI KURASH**

### **CHOTQMBYU GIIF VA SHTBIT kafedrasi professori**

Mustaqil davlat o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqqanidan keyin hech bir tomonidan o'zga davlatlarga biror-bir jihat bilan qaram bo'imaslik harakatida bo'ladi. Prezidentimiz Islom Karimov Mutaqilligimizning ilk yillardanoq xalqimizni sovet davri siyosati ta'siridan xolos bo'lishi uchun ma'naviy merosimizni o'rganish va avaylab-asrashga doir masalalarga alohida e'tibor bera boshladi. Chunki sobiq ittifoqni qayta tiklash bo'yicha turli g'oyalar va amaliy harakatlar boshlanib ketgan edi.

G'arb davlatlari o'rtasida bizga rahnamolik qilish uchun turli sa'y-harakatlar bo'lib, turli ommaviy axborot vositalarida turli-tuman maslahatlar beradiganlar ko'payib bormoqda.

Globallashuv tahdidlari xuruj qilayotgan bugungi kunda vatanparvarlik davlat tomonidan boshqarilishi, qo'llab-quvvatlanishi lozim. Shu bois, "xalqning ma'naviyruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekis-tonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir".

O'zbek xalqi azal-azaldan e'zozlab kelgan qadriyat, ma'naviy fazilat-lar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan Abdullo Avloniy milliy merosga tayangan holda "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida quyidagi g'oyalarni ko'rsatib o'tgan edi. 1. Fatonat (aql egasi bo'lish). 2. Diyonat (e'tiqod). 3. Islomiyat (butun insoniyat. Insoniyat esa yaxshi xulqdan iborat). 4. Nazofat (poklik). 5. Sa'y va g'ayrat. 6. Riyozat. ("savob ishlarni qilib, gunoh ishlardan saqlanmoq"). 7. Shijoat (botirlilik). 8. Qanoat. 9. Ilm. 10. Aqsomi ilm. (diniy va dunyoviy ilmlarni borobar o'rganish). 11. Sabr (chidamlilik). 12. Hilm (yumshoqlik, achchiqlanmaslik). 13. Intizom. 14. Miqyosi nafs (o'z talablarini qondirishda me'yor saqlash, o'zgalarga ziyon-zahmat yetkazmaslik, insof qilish, "insoniyat qonuniga muvofiq" ish ko'rish). 15. Vijdon. 16. Vatanni suymak. (vatanparvarlik). 17. Haqqoniyat (ishda to'g'rilik, so'zda rostlik). 18. Nazari ibrat (o'zgalardan yaxshi va foydali narsalardan ibrat olish). 19. Iffat. (nafsni gunoh va buzuq ishlardan

<sup>1</sup> Каримов И.А. Миллий истиқсолол, иктисад, сиёсат, мағкура, 1-жилд, -Т., Ў., 1996. -Б.83.

saqlash). 20. Hayo (“ishda, so‘zda odobga riox qilish”). 21. Idrok va zako (“ochiq fikrli, xushtabiat, ziyrak bo‘lish”). 22. Hifzi lison (ona tilini saqlash). 23. Iqtisod (“pul va molning qadrini bilish”). 24. Viqor (kibr, g‘urur, manmanlikdan saqlanish). 25. Xavf va rajo. (“Haqdan qurqish va undan umidini uzmaslik”). 26. Itoat (Allohga hamda “ota-on, ustod, muallim, kabi o‘zidan ulug‘ kishilarga itoat qilish”). 27. Haqshunoslik (yaxshilikni unutmaslik, yaxshilik qilgan kishiga yaxshilik qilish). 28. Hayrixohlik (bir-biriga foyda yetkazish, o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani birovlarga ham qilmaslik). 29. Munislik. (o‘z tengi, maslakkoshini topib olib, ulfat bo‘lmak). 30. Sadoqat (“o‘z vazifasini to‘g‘rilik ila ishlamak”, din va millatiga, Vatan va davlatiga, to‘g‘rilik ila xizmat qilish). 31. Adolat. 32. Muhabbat (yorni, ota-onani, ilmni va h.k.larni suyish). 33. Olihimmat (“din va millatga, fidoyilik ishlarini” qilish). 34. Afu (kechirimli bo‘lish).

A.Avloniying yuqorida keltirgan tushunchalari jamiyatda amal qilishi lozim bo‘lgan iboralardir. Ularning har birida katta mazmunma’no mavjud. Ota-bobolarimizning o‘zaro munosabtlarida insonga hurmat ko‘rsa-tish birinchi o‘ringa qo‘yilgan va ularning asosini ma’naviyat va axloq tushunchalari egallagan.

Amerika demokratiyasи ham o‘z xalqi madaniyati, mentaliteti, qadriyat-lar tizimi, ya’ni milliy xarakteriga tayanadi. Bu millat xarakterining asosiy belgilari quyidagilardan iboratligini rus olimi A.S.Karmin quyi-dagi 20 ta xususiyatini ko‘rsatib o‘tadi: 1. Faollik, harakatchanlik. 2. Tad-birkorlik. 3. Ilmga berilganlik. 4. Erkin hatti-harakatlar, tortinmaslik. 5 Mehnatkashlik, ishonchlilik. 6. O‘ziga haddan ziyod ishonch. 7. Progrmatizm. 8. Ishchanlik. 9. Manfaatparastlik. 10. Qonun va hokimiyatni hurmat qilish. 11. Ratsionallik. 12. Individualizm. 13. O‘z sog‘ligi haqida qayg‘urush. 14. Sportga muhabbat. 15. Mag‘rurlik. 16. Vatanparvarlik. 17. Tartib-lilik. 18. Surbetlik. 19. Optimizm. 20. Egoizm.

I.Karimov ta‘kidlaganidek, “Hech bir mamlakatda boshqa davlatda qa-ror topgan demokratiyanı to‘g‘ridan to‘g‘ri, ya’ni nusxa ko‘chirish yo‘li bilan joriy etib bo‘lmaydi. Chunki har bir inson, har bir jamiyat o‘z hayoti bilan yashamaydi”<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5-жилд. –Т., №Ўзбекистон”. -Т., Ўзбекистон. 1997. -Б.148.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot yo'lining dastlabki kunlaridanoq madaniyat, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

I.Karimov iborasi bilan aytganda, "Yuksak ma'naviy – axloqiy qadri-yatlar va milliy an'analarni hayotga joriy etish masalasining Asosiy qonu-nimizda mustahkamlab qo'yilishi jamiyatimizni yangilashga, desokratik ham-jamiat bilan integratsiyalashuviga intilayotgan mamlakatimizning yangi qiyo-fasi va flarimizning yangi tafakkurini shakllantirishga xizmat qilmoqda"<sup>3</sup>.

Amerika madaniyatiga xos an'analar.	Boshqa madaniyatlardagi asoslar
Dunyo tabiat – mexanik, ratsional, mantiqiy	Dunyo tabiat – ma'naviy, irratsional, sirli
Moddiy ne'matlarga e'tibor	Ma'naviy qadriyatlarga e'tibor
Harakat, ya'ni o'zgarish, taraqqiyotga e'tibor.	Mavjud tartibni saqlab qolishga e'tibor ...
Odamlar tabiatni boshqarishi kerak.	Odamlar tabiat bilan uyg'unlikda yashashlari lozim.
Vaqt – pul, uni behuda ishlarga sarflamaslik kerak	Vaqt inson boshidan o'tkazayotgan voqeа-hodisalarining rang-barangligi.
Kelajakka yo'nalganlik	O'tmisht va bugungi kunga yo'nalganlik
Qisqa muddatli rejalar	Uzoq muddatli rejalar
Odatda, diqqat markazida – topshiriq	Odatda diqqat markazida – odamlar
Shaxs avtonomligiga e'tibor	Shaxsning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligiga e'tibor
Mustaqil qarorlar qabul qilishga e'tibor	Jamoaviy qarorlar qabul qilishga intilish
Ijtimoiy nazoratning asosi qonuniylilik, ishonch, aybdorlik hissi	Ijtimoiy nazorat asosi – axloq normalari, kattalar obro'si, uyatchan-lik hissi
Odatda yoshlarga xos sifatlar qadrlanadi	Odatda katta yoshlilar, tajriba, donishmandlik qadrlanadi

<sup>3</sup> Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. // Халқ сўзи, 2003 йил. 25 апрель.

Shaxslararo munosabatlarda tenglikka e'tibor	Shaxslararo munosabatlarda tenglikka e'tibor
Noformal munosabatlarga e'tibor	Formal munosabatlarga e'tibor
Erkin fikr bildirish, bemalollik, ochiqlik	Ochiq munosabat bildirishdan gochish
Do'stona munosabatlar tez o'rnatilib, yuzaki xarakterga ega	Do'stona munosabatlar sekin shaklla-nib, samimiyligi bilan farqlanadi
Shaxiy hayot bilan bog'liq masalalarni ijtimoiy hayot bilan bog'liq masalalardan alohida hal etishga moyillik	Shaxsiy hayot bilan bog'liq hamda ijtimoiy va ishga oid masalalarni hal etilishini bir-biriga bog'lashga moyillik

Yuqorida keltirilgan o'ziga xosliklar G'arb olamida, ayniqsa, AQShda erkinlik va demokratiya asosida shaxsiy turmush tarzi, sharq olami kishilari hayotida jamoaviylik ustunligini namoyon etganini ko'ramiz.

Globallashuv sharoitida o'z madaniy an'analarimiz, milliy ma'naviya-timiz, mentalitetimiz bilan bizga targ'ib etilayotgan g'arb olami turmush tarzini, ommaviy madaniyatini qabul qila olmaymiz, amal qilish haqida esa gap ham bo'lishi mumkin emas. "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"<sup>4</sup>-deb ta'kid-laydi I.Karimov.

Jahonda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarining tahlili shuni ko'rsat-moqdaki, globalashuv tufayli endilikda davlatlar boshqa davlatlarning dushmanlik bosqinlaridan emas, balki xalqaro xavfsizlikka bo'lgan tahdid-lardan ko'proq xavsfiray boshladilar.

Alber Shveyser: "Vogelikni shakkantiradigan kuchlar ichida birinchisi – ma'naviyat va axloq. Qolgan barchasi ozmi-ko'pmi ikkinchi darajali", - degandi.

O'zlikni anglamay turib, milliy g'ururni tiklamagan holda yangi jami-yat qurib, uni demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati sari dadil va qat'-iy qadam qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun ham I.Karimov zamon notinch va globalashuv davrida zarur vaqt topib, 2008 yilda "Yuksak ma'naviyat – yengilmak kuch" asarini yozib xalqimizga tortiq qildi. Mazkur kitobda ma'na-viyatning xalqimiz buguni, ayniqsa, kelajagi

<sup>4</sup> Каримов И.А. Машнавий юксалиш. –Т., Ўзбекистон, 1998. – Б.5.

uchun qanchalik ahamiyati yuksakligidan kelib chiqqan holda uni to'rt bobga bo'lgan holda masalalarini yoritadi.

Madaniyat, ma'naviy qadriyatlar o'zida mujassam etgan hodisa sifati-da, odamlararo munosabatlarning insoniylashuvi darajasini belgilaydi. "Agar madaniyat voqe bo'lgan moddiylashgan qadriyatlar olami ekan, u o'zida qadriyatlarning butun tižimini jamlagan taqdirdagina to'laqonli hodisaga aylanishi mumkin. Agar madaniy dunyoni barpo etishda qadriyatlarning müay-yan toifasi e'tiborsiz qoldirilsa, madaniyat muqarrar kemtik bo'lib qoladi, ya'ni moddiy ashyoviy qadriyatlar e'tiborsiz qoldirilsa, u o'z müstahkamli-gini yo'qotadi yoki unda ma'naviy qadriyatlarning muayyan toifasi inkor etilsa, insoniylik darajasi past va insoniylikka zid ham bo'ladi. Mažkur xildagi madaniyatga ega bo'lgan jamiyatlarda ma'naviyatsizlik hukm suradi".<sup>5</sup>

Ma'naviyat insoniy munosabatlar dunyosini shakllantiradi, ularning tayanch asoslarini belgilaydi. O'z navbatida, har bir inson o'z hayotida qaysi yo'lni tanlashni ko'p jihatdan, uning qanday xislatlarga ega ekanligiga, uning qalbidan o'rın olgan qadriyatlarga bog'liq. Shuning uchun ham Islom Karimov ma'naviyatga quyidagicha, "...ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imyon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"<sup>6</sup> ta'rif beradi.

Ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdoddlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlarga, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo'ljadi barcha asorat va illatlardan xolos bo'lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi.

"Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatzion

<sup>5</sup> Чавчавадзе Н.З. Феномен бездуховности. – Тибилиси, 1991. – С.24.

<sup>6</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: "Маънавият", 2008. – Б.19.

xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman", - izoh beradi I.Karimov.

Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urushini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, o'ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi<sup>7</sup>.

Amerikalik S.Xantington XXI asrda har qanday tamaddun (madaniyat) ning asosini din tashkil etadi va diniy e'tiqod xalqlar ongida eng chuqur ildiz otgan, turg'un ekani haqidagi g'oyaga tayanadi. Rossiyalik olim F.X. Kassidi esa, "Fikrimizcha, agar urush bo'ladigan bo'lsa, u etnik urush bo'ladi. har holda hozirgi lokal to'qnashuvlar, harbiy harakatlar va ziddiyatlarning aksariyat ko'pchiligi etnik asosga ega. Aks holda, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy va siyosiy birlashish jarayonlari borayotgan, jahon kommunikatsiya tizimi shakllanayotgan, atrof muhitni asrash bo'yicha xamkorlikda harakat kengaygan bir sharoitda etnik va separatizm tendensiyalarining kuchayishini (Basklar mamlakatida, Tog'li Qorabog', Abxaziya, Checheniston, Kurdiston va boshqa xududlarda) tushuntirish qiyin bo'ladi".

"Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotga-nining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqasi va xududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jara-yondan chetda turishi ijobjiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, ang-lash qiyin emas"<sup>8</sup>.

Jaloliddin Manguberdi Chingizxon vafot etganini eshitib kuyib ketadi, bir necha kun o'zini qo'yarga joy topolmaydi, qattiq motam tutadi. U Chingizxonning o'limiga achinganidan emas, balki Vatani va xalqi uchun, begunoh to'kilgan qonlar uchun dushmanidan qasos ololmay qolganiga motam tutardi: "Dushmanlarim orasida olishishga arzigulik g'anim qolmadi-ku?!" Chingiz o'limidan keyin Jaloliddin Manguberdi ilgarigi shiddat va jasorati so'na boshladi, uzlatga chekindi va nogahoniy o'lim topdi...

<sup>7</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – Б.14.

<sup>8</sup> Каримов И.Л. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008. –Б. 111.

“... har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avval-ambor, yosh avlodimiz ma’naviy olamining dahlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib – suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni o’ylantirishi tabiiy.

Men, hayotda ko’p bora o’z tasdig’ini topgan haqiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada shunday degan bo’lardim: tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va qarshi har tomonlama chuqur o’ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzlusiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin”<sup>9</sup>. O’zR Qurolli Kuchlari ofitserlari va askarlarimizni hozirgi zamonaliviy global-lashuv sharoitidagi ma’aviy tahdidlarga qarshi turish, muntazam va uzlusiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish uchun Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ini, Amir Temurning “Tuzuklar”ini, Ali-sher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Hayratul abror”, Boburning “Boburnoma”sini; Abdurauf Fitratning “Oila”, “Najot yo’li”, Adbullo Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi qator manbalarni chop ettirish zamon talabidir. Harbiy bilim yurtlarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarga mas’ul bo’lgan xizmatchilarni albatta malaka oshirish va qayta tayyorlashni I.Karimov qo’ygan talablar asosida amalga oshirishga alohida e’tibor berish lozim bo’ladi.

Qadigi Xitoy harbiy strategi Sun-szi “Strategiya san’ati” kitobida: “Donishmand hukmdor, o’z mamlakatida birinchi navbatda fuqarolik boshqa-ruvini rivojlantiradi, tashqi dushmanlarga qarshi esa o’zining harbiy kuch-larini doimo tayyor, shay tutadi”<sup>10</sup>, deb yozadi. Davlat hayotida fuqarolik boshqaruvi, bilaks, mamlakatda fuqarolik hayotini rivojlantirish, va har-biy boshqaruvni, ya’ni harbiy ruhni, harbiy san’atni tarbiyalash va qo’shin-lar haqida qayg’urishdan iborat bo’lmog’i lozim. Hozirgi zamondagi harbiy-siyosiy vaziyat birinchi navbatda inson omiliga, harbiy ofitserlarimiz va askarlarimizni ma’naviy-ruhiy jihatdan kamol topib, chiniqib borishiga va har qanday tahdidlarga munosib zarba berishga shay bo’lishini taqozo etmoqda.

<sup>9</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б.115-116.

<sup>10</sup> Сунь-цзы Искусство стратегии. –М. Эсмо; СПб. Мидгард. 2008. – С. 455.

Sarkarda davlat uchun aravani mahkam bog'lab turuvchi qayish vazifa-sini o'taydi; agarda bu qayish qattiq, mustahkam bog'langan bo'lsa, davlat so'zsiz kuchli bo'ladi; agarda qayish bo'sh bo'lsa, demak davlat ham bo'sh bo'ladi. Mohir sarkarda, urushni tushunadigan sarkarda halqning taqdirini hal qiluvchi, davlat xavfsizligini ta'minlovchisidir”-deydi Sun-szi<sup>11</sup>.

«Men tarixni o'qigan va tahlil qilganim sari, uning (ya'ni tarixni) inson nomukammalligining tilisiz guvohi ekanligini anglab yetdim», deb yozgan edi I.Kant.

Inson shu darajada tubanlikka g'arq bo'ldiki, oqibatda u bolshevizm, fashizm, natsizm, totalitariz, terrorizm kabi vahshiy tahdidlarga qarshi ochiqdan-ochiq bosh ko'tarishdan ko'ra yolg'izlanishni afzal ko'ra boshladи. Hozirgi kunlarda esa fojiali fakt terrorchilik, turli ekstremizm singari illatlar bugun insonda aql-farosat, ma'rifat, totuvlik madaniyati, yuksak ma'na-viyat, milliy qadriyatlarining yetishmasligi oqibatida sodir bo'lib turibdi. Kishilar bu tahdidlar jarayonida bir “qo'g'irchoqqa” aylanib qolmoqda.

I.A.Karimov, “Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yil-sa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaer-da hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi”,<sup>12</sup>, deb alohida o'qtiradi.

Jahon iqtisodiyoti va siyosatida hakamlikka da'vo qilayotgan AQSh dunyoga egalik qilishning eng nozik, shu bilan birga, eng kuchli vositasini ham ishga solmoqda. Bu – madaniyat sohasidagi gegemonlikka intilish. Hayot-ni, voqelikni ma'naviyat belgilaydi. Voqelikni o'z izmiga solishga urinayot-gan AQSh shuning uchun turli millat, xudud va davlatlarni madaniy, ma'na-viy asoslardan mahrum etish, global miqyosdagi manqurtlik kasalini yoyishga intilmoqda va katta miqdorda kuch va mablag' ishlatmoqda. Vatanni sevish uchun unga undaydigan nimadir bo'lishi kerak. O'zligini tanimagan, madaniya-tidan, tarixidan mahrum etilgan manqurtda, tabiiyki, Vatan tuyg'usi ham bo'lmaydi.

<sup>11</sup> Ўша ерда, -С. 458.

<sup>12</sup> Каримов И.А. Йоксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б.116

AQShning “Makdonald” yoki “Koka-kola” singari kompaniyalari ramzida o‘z ifodasini topgan targ‘ibotlar faqat iste’molchilikdan boshqa narsa emas. Inson – iste’molchi. Hayotiy moddiy, ma’naviy ehtiyojlarimizni iste’mol orqali qondiramiz. Ammo g‘arb taklif etayotgan iste’mol mada-niyati, kishidagi eng past instinklarga suyanadi; ularni qo‘zg‘aydi, iste’mol-chilik kayfiyatini uyg‘otishga qaratiilgan: Iste’molchilik kayfiyatiga beril-gan kishi barcha narsaga foyda nuqtai-nazaridan yondoshadi. Ezgulik, muruv-vat, mehr-oqibat, muhabbat, Vatan, xalq, o‘zgalar taqdiri uchun javobgarlik kabi insoniy tuyg‘u va tushunchalar “qorinni to‘ydirmaydigan” behuda dardi-sarga aylanadi. G‘arbda, “kishining xamyonini qaerda bo‘lsa, yuragi ham o‘sha yer-da”, degan yarim hazil, yarim chin ibora qo‘llaniladi.

Shu bois, I.Karimov “ommaviy madaniyat” masalasiga alohida to‘xta-lib; «Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alo-hida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan keyin jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘sh-liqdan foydalanim chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo‘lishi kerak»<sup>13</sup>.

Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarni tarqatish, kerak bo‘l-sa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yil-lik an’ana va qadriyatları, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepi-sandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qolmaydi»<sup>14</sup>.

“Ommaviy madaniyat” kishiga insonlik, shaxs martabasini beradigan milliy madaniyatidan, ma’naviyatidan, tarixiy xotirasidan mahrum etadi. V.G.Fedotova ta’biri bilan aytganda, “ommaviy madaniyat” “ildizsiz indi-vid”larni shakllantiradi. OAVlari yordamida esa “ildizsiz”, zaminidan mahrum etilgan individlar ommasi paydo bo‘ladi. Jamiyat anomiya (tartib-qoida va qadriyatlarini yo‘qotish) holatiga tushadi. Bir jinsli oilalar, nar-kotik moddalarga ruju qo‘yishlar, internet, telefon bilan bog‘liq muammo-lar, farzandni birovlari tug‘ib

<sup>13</sup> Каримов И.А. ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт ўйли. – Т., Ўзбекистон, 2007. –Б. 28.

<sup>14</sup> Ўша манба, 117 – б.

berishi, surragat ona, g'arb davlatlarida otasi noma'lum farzandlar sonining ortib borishi va h.

P.J.Byukenen, F.Fukuyama, S.Xantington kabi AQShlik mutaxassislar o'z kitoblarida "ommaviy madaniyat" va ma'naviyatsizlik jamiyatni qayoqqa boshlab borayotganliklari haqida yozmoqdalar.

"Ommaviy madaniyat" orqali qadriyatlar tizimini tubdan o'zgartirishga harakat qilinmoqda va ushbu madaniyat "qoliplari" qaerda ishlab chiqarila-yotganidan kelib chiqib, aytish mumkinki, bu o'zgarish, avvalo, g'arbona individuallizm, xudbinlik tomon bormoqda. Buning xavfli tomonlarini ingliz sotsiolog Z.Buaman quyidagicha ifodalaydi: "Individuallashgan jamiyatga uch xarakterli xususiyat xos: inson tomonidan ijtimoiy jarayonlar ustidan nazorat yo'qolishi; kishining jamiyatdagi o'zgarishlar qarshisidagi voqealarni nazorat qilish imkoniyatining yo'qligi tufayli, himoyasizligi va o'zi yashashi kerak bo'lgan mavhum, noaniq voqelik qarshisidagi himoyasizligi; bularning oqibati o'laroq, insonning uzoq muddatli maqsadlarni, hayotiy strategiyalarni rejalashtirib, ro'yobga chiqara olmagani tufayli, ular uncha-lik salmoqqa ega bo'lmasada, darhol qo'lga kiritiladigan natijalar bilan almashtirishga majburligidir".

F.Fukuyama, va U.Beklar rivojlangan davlatlar erishgan texnik va iqtisodiy taraqqiyotning ulkan yutuqlari jamiyat ma'naviyatida taraqqiyotga olib kelmayotgani haqida afsus bilan fikr bildirishmoqda. Ma'naviyatsizlik asosida shakllanayotgan qoidalar ilgarigi ijobiy qoidalarni buzishga olib kelmoqda. Jamiyatda asrlar mobaynida to'planib kelgan "ijtimoiy kapital" bo'lgan qadriyatlar parchalanishi ko'z oldimizda sodir bo'immoqda.

"Ommaviy madaniyat"ning tayanchi – "daromad, foyda g'oyasi va bugun ham-ma narsani, jumladan, hayot va sog'lijni ham sotib olish mumkinligiga bo'l-gan ishonchdir. Bu vazifani ommalashtirishni o'z zimmasiga olgan televi-deniya va internet hisoblanadi. Kishilar uchun yashirin bo'lgan ayrim hodisa-lar ular orqali "oshkora" qilinmoqda. Masalan Moskvada pental terapiya orqali 10-15 ming dollarga yosh va navqiron bo'lish mumkinligi haqida jar solinmoqda. B.Yelsin, A.Pugacheva, I.Kobzon va chet elliklar esa bundan keng foydalanishmoqda. A.Pugacheva esa oltmishdan o'tib "bolalik bo'ldi"?!.

Dunyoda sodir bo'layotgan turli tahdidlar maqsadli amalga oshirilmoq-da va jamiyatning bir-biriga dushman bo'lgan mafkuraviy qutblarga ajralib ketishi kuchayib bormoqda. Dunyoda hukmron va tobe,

“yuqori” va “past navli, o‘z davlatiga ega bo‘lishga haqli yoki aksincha, u bilan bog‘liq bo‘igan tabiiy huquqdan mahrum qilingan (kurdlar, basklar va boshqa xalqlar) hatto “tari-xiy” va “notarixiy” millatlar makonlariga toifalanmoqdalar deb yozadi Rossiyaning “Otkryitaya politika” jurnali o‘zining 1999 yil 1-2 sonlarida.

Axborotlashgan jamiyatga tanqidiy qaragan G.Shiller bunday axborot tarqatishlar faqatgina odamlar (axborot iste’molchilar) podaga aylanib, “ommaviy madaniyat” ning yemi bo‘lib qoladilar deydi.

Bunday hodisalar qurboni bo‘lib qolmaslik uchun Cho‘lpon “Kecha va kun-duz” romanida jadid tili bilan farzandini rus maktabiga berish qaroriga kelgan Miryoqubga javoban: “Bu fikringiz xato, ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo‘lmaydi, uni milliy maktablarga berish kerak. Ilgari milliy hissini o‘sirib, o‘z millatini taniganidan so‘ng rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o‘qisin. Undan keyin Germaniya, Fransiya, Angliya mamlakatlariiga, hatto dunyoning narigi chekkasidagi Amirqoga yuborib o‘qitish kerak”, degan edi.

XXI asrning ilk bosqichlarida insoniyat ko‘plab murakkab muammolarga duch kelmoqda. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi – XX asr oxirigach o‘z yechimini topmagan va keyingi ming yillikka o‘tgan an’anaviy muammolar;

Ikkinci – batamom yangi ijtimoiy madaniy asosda vujudga kelgan ijtimoiy ziddiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, xavf-xatarli jarayon va tahdidlar bilan bog‘liq muammolar. “Bu tahidlarni oldindan ko‘ra bilishga hamma vaqtida ham muvaffaq bo‘linmayotir. Ko‘pincha ular kutilmaganda ro‘y bermoqda”<sup>15</sup>.

Keyingi yillarda Afg'onistonda, Iroqda, Liviya va Suriyada sodir bo‘layotgan sunniy – shialar to‘qnashuvi, Afrikaning bir qator davlatlarida sodir bo‘layotgan tuqnashuvlarda bir millionga yaqin kishilarning o‘limi, nogiron, mayib-majruh va majburan “qochoq”larga aylanib qolib boshqa yurtlarda noinsoniy sharoitlarda yashashlariga majbur qilmoqda.

Hozirgi vaqt达 axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘-liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oilla muqaddasligi

<sup>15</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида... –Т., Ўзбекистон, 1997. – Б. 5.

va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qari kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda.

XXI asr insondan sifat jihatdan keskin ijobjiy o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Inson, uning aql-idroki, zakovati va salohiyati, fahm-farosati ijtimoiy taraqqiyot, insoniyat birdamligining asosiy omiliga aylanishiga ehtiyoj sezilmoqda. Zamon insoniyatning o'z-o'zini anglab olish, tahdilarni batraraf etish uchun faqat uning o'zi mas'ul ekanligini ko'rsamoqda.

O'z-o'zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va xushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mayjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlari-miz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida biryoqlama va soxta tasavvur bo'lmasisligi kerak<sup>16</sup>. va yana alohida ta'kidlab bizning yurtimizda fuqarolik jamiyatini qurib borishimiz natijasida "Sodir bo'layotgan voqealarga mustaqil yondon-shadigan kishilar voyaga yetadiki, ular keyinchalik biron-bir o'tkinchi g'oya va ta'sirga berilmaydilar"<sup>17</sup>, deb o'qtiradi Islom Karimov.

<sup>16</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т., Маънавият, 2008. –Б. 119.

<sup>17</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999. –Б. 20-21.

## XII &. ZAMONAVIY HARBIY XIZMATCHINING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASI

Yaxshi tarbiya millat ichidan buyuk  
insonlarni ko'paytirishga, qolganlarini esa  
sog'lom fikr yurituvchi fuqarolarga qodir.  
Gelgesiy

Har bir inson ma'lum maqsadga asosan tarbiyalanadi va tayyorlanadi. Bizning xalqimiz, davlatchiligimiz insoniyat tarixiy taraqqiyotida o'ziga xos va o'ziga mos o'ringa ega bo'lib kelganining yorqin misolini hozirgi zamonda ham erishayotgan qator yutuqlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin.

Jahon davlatlarning ko'pchiligi, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar 2008 yildan boshlagan chuqur moliyaviy-iqtisodiy inqirozni, boshidan kechirib va undan chiqish yo'llarini topa olmayotgan bir vaqtda, bizning davlatimiz va xalqimiz Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida o'rtacha 8 va undan yuqori o'sish darajalarga erishib kelmoqdamiz. Erishib kelayotgan yuksak natijalar orqasida xalqimizning samarali mehnati, shijoati, yaratuvchilik qobiliyati yotibdi. Biz kimlarning nasli va kimlarning ajdodlari ekanligimizni yil sayin chuqur anglab bormoqdamiz. Ota-bobolarimizning bizga qoldirgan muqaddas qadriyatları, ma'naviy-axdoqiy merosini o'rganishni va ularga amal qilib yashashni o'zimiz uchun muqaddas biladigan xalq farzandlarimiz.

Haqiqatan ham ajdodlarimizning nimalarga qodir bo'lganliklarini buyuk tariximizdan yaxshi bilamiz. prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Bizning tariximiz esa shavkatli va shon-sharafli tarixdan iboratdir. XX asrning 60 yillarda sovetlar mamlakati millatparvarlar qabristoniga aylantirilgan bir vaqtda o'zbek shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov:

*Men buyuk yurt o'g'lidirman,*

*Men bashar farzandiman,*

*Lekin avval senga bo 'sam,*

*Sodiq o'g'lon, o'zbegim, - deya olgan edi-ku.*

**Xurshid Davron esa 70-yillarda:**

*Shu Vatan o'ssin deb, kuchga to 'lsin deb,*

*Mehrga to 'ldirib dil, ko'zingizni,*

*O'g'ilga nom bering Jaloliddin deb,*

*Qurbanjon deb chorlang siz qizingizni, - deya olgan edilar!*

1991 yil 1 sentabridan, Mustaqillik e'lon qilingan kunidan boshlab, davlat tom ma'noda xalq irodasini ifodalay boshladi. Xalqimizning davlatga bo'lgan munosabatida Ishonchi, Muhabbati va E'zozi orta bordi. Ya'ni O'zbekistonda davlat va millat birligi xalqning:

ayrim sinflar, tabaqalar emas, balki umumxalq manfaatlarinii sobit turib himoya qiluvchi;  
milliy an'analarga sodiq;  
ijtimoiy adolat himoya qiluvchi;  
mamlakatimiz osoyishtaligi, siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi;  
millatni ichki va tashqi tahdid va tajovuzlardan qo'riqlovchi;  
har bir fuqaroning haq-huquqi, erki, nomusini himoya qiluvchi o'z davlatiga egaligida namoyon bo'lmoqda.

**Biz mustaqilligimizni yanada mustahkamlash va davlatimizni ravnaq topishi uchun hayotimizda amal qilib kelayotgan quyidagi salbiy jihatlardan qutilishimiz kerak!**

1. Beparvolik.
2. Beg'amlik.
3. Mahalliychilik.
4. Hech kim bilan munosabatni buzmaslikka intilish.
5. Loqaydlik.
6. Islohotlar mohiyatini bilmaslik
7. Dunyoqarashning torligi.
8. Jur'atsizlik.
9. Eskicha fikrlash.
10. Shaxsiy sadoqat ustuvorligi.
11. So'z ya ish orasidagi tafovut.
12. Hafsalasizlik va boshqalardir.

**Milliy yuksalishimiz uchun takomillashtirishimiz zarur bo'lgan ijobji sifatlar esa:**

1. Ruhan uyg'oqlik.
2. Bilimdonlik.
3. O'zini millat ishiga tikanlik.
4. Ona tiliga fidoyilik.
5. So'z va ish birligi.
6. Vatan uchun o'z farog'atidan kecha olishlik.
7. Qat'iyatlilik.
8. Uquvlilik.
9. Xushyorlik.
10. Ishbilarmonlik.

11. Vaqtni qadrlay bilish.
12. Intizomlilik.
13. Mas'uliyatlilik.
14. O'z ustida doimo ishlash.
15. Vatanparvarlik.
16. Halollik.
17. Tashabbuskorlik. Burchga sadoqat.
18. Fuqarolik mas'uliyati va boshqalar.

**Bizni xalq va millat sifatida birlashtiruvchi jihatlarimiz:**

tilimiz;

dinimiz;

mozorlarimiz;

bozorlarimiz;

to'yalarimiz bir (oshga sherkmiz);

janozalarda birgaligimiz;

havomiz;

yuradigan yo'llarimiz;

chegaramiz;

madhiyamiz;

bayroq, gerbimiz;

Prezidentimiz;

Umumi dushman – terrorizm;

O'zbekistonda tug'ilganligimiz;

O'zbek madaniyati, sporti, san'ati;

Tortgan azoblarimiz;

Ajdodlar to'kkon qon;

Millat faxri – Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, buyuk allomalarimiz;

Kelajakimiz, orzularimiz;

Mustaqillik, uning uchun bergen qurbanlarimiz;

Ota-bobolarimiz e'tiqod qo'ygan an'analarimiz, dinimiz islom.

O'zbekiston – millatning tani, millat esa – O'zbekistonning jonidir.

Bir lahma O'zbekistonni o'zimizning o'zbekchiliksiz, milliy til, ma'naviyatdan ayri tasavvur qilib ko'ring-chi. Xudo asrasin – siz "territooiya"ni, yerni ko'rasiz yoki millatni O'zbekiston siz tasavvur qilib ko'ring... ming alhazar! Siz – "aholi"ni ko'rasiz. Ayon bo'ladiki, "o'zbekchilik"siz - O'zbekiston , O'zbekiston siz (Vatansiz) – millat mavjud bo'la olmaydi. Bizga joni omon, tani salomat O'zbekiston kerak. Zero, ana shunday O'zbekiston ning kelajagi buyukdir.

Sizning siyratingizda O'zbekiston bor. Iz - O'zbekiston da, O'zbekiston - izda yashaydi. Ana shu yagona O'zbekiston ning kelajagiga o'z hissasini qo'shmagan vatandoshimizning O'zbekiston havosidan nafas olishga ma'naviy haqqi yo'q.

Umummilliylar vatanparvona birlik – umummilliylar vatanparvarona fidoyilikning ichi, umummilliylar vatanparvona fidoyilik – birlikning sirtidir. Bu otashnafas o'zbek shoiri Abdulla Oripov she'rida shunday yangromoqda:

*Men nechun sevaman O'zbekistonni?*

*... Paxta o'smaydimi o'zga yerda yo?*

*Yoki quyoshimi sevgimga sabab?*

*Axir quyoshli-ku butun Osiyo!*

Kam qiynalgan kam rohatlanadi.

Milliy fidoyilik kuchayib va susayib turadi. Kuchaysa, millat insoniyat tarixi sahifalarida ijobjiy namuna sifatida sharaflanadi, susaysa ... unut bo'ladi. chunki vatanparvarona fidoyilik bo'lmasa, millat o'zining tashabbuskorlik, ijodkorligining harakatlantiruvchi kuchidan, quvvatidan judo bo'ladi.

\*\*\*\*\*

## XIII &. ZAMONAVIY RAHBARLARGA BO'LGAN TALABLAR

Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida 28 yildan buyon mustaqil o'z tanlagan yo'li bilan dadil qadamlar tashlab bormoqda. Bizning zamonamiz o'ziga xosliklari bilan o'tmish davrlardan keskin farq qiladi. 2008 yilda AQSh va G'arbda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz juda ko'p rivj topgan davlatlarni va ularning aholisini juda qiyin ahvolga solib qo'yamoqdi. Bunday vaziyatdan chiqish va mazkur masalalarni hal etish yo'llarini topish, bu – juda murakkab va qiyin masala ekanligini mana sakkiz yildan bilan davom etib kelayotganligi ko'rsatib turibdi. Bunday sharoitda bu muammolarni yechish uchun boshqaruq qobiliyati bo'lgan rahbarlar vaziyat taqozosini bilan qattiqo'llik xususiyatilariga ega, insofli, diyonatli kishilarnigina lider-yetakchilik qilishga, rahbar bo'lishga ma'naviy haqqi bor. Elim deb, yurtim deb yonib yashashi kerak degan shior har bir rahbar faoliyatining hayotiy maqsadiga bo'lmoq'i kerak.

"Rahbarlik qobiliyati ham, mening fikrimcha odamzodga Alloh taolo beradigan noyob bir in'omdir. Binobarin, rahbar shaxs ana shu yuksak talab va mezonlarga munosib bo'lishi zarur"<sup>18</sup> – deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov.

Ko'pchilik mas'ul rahbarlarda izchil hayotiy pozitsiya, fuqarolik burchini yaxshi anglab yetish, bugungi davlat siyosatiga aniq munosabat mavjud emas. Rahbar bo'lish uchun birinchi navbatda kurashchi, baquvvat iymoni butun bo'lishi kerak.

Rahbar bugungi iqtisodiy islohotlar mazmun-mohiyati va oqibatlarni bilmasa, tushunib yetmasa va ularga ishonmasa, tadbirkorlik harakati-ning boshida turib, uning natijalarini tasavvur qilolmasa, buning ustiga irodasi bo'sh bo'lsa, qanday qilib boshqalarni yaratuvchilik ishlariga ishontiradi, kishilarni o'z ortidan ergashtirib boradi.

Rahbar mas'uliyatli bo'lishi zarur. "Biz o'z yo'limizni tanlab oldik. Shu yo'ldan borishga ahdu paymon qildik"<sup>19</sup> – deb aytgan edi

<sup>18</sup> Каримов И.А. Ижобий ишларимизни охирига етказайлик. Т.: Ўзбекистон, 1994. 12-бет.

<sup>19</sup> Каримов И.А. Иқтисодий ислоҳот: масъулиятли боскич. Т.: Ўзбекистон, 1994. 26-бет.

yurtboshimiz 1994 yilda “Iqtisodiy islohot: mas’uliyatli bosqich” mavzusidagi nutqida.

Prezidentimiz tomonidan 2008 yilda ishlab chiqilgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozлами chetlab o’tish chora-tadbirlarini qay darajada amalga oshishi, rahbarlarning dunyoqarashiga, rahbarlik mas’uliyatiga, halol va pok, tadbirkor va tashabbuskor, chaqqon va epchil bo’lishiga bog’liqdir.

Rahbarlik – lavozim, mansab emas, avvalo, odamlarga xizmat qilish mas’uliyati ekanini barcha to’g’ri tushunib olishi zarur. Rahbar hammadan ko’proq ishlab, jamoasi, hamkasblari saodati va shu orqali yurti ravnaqi uchun yelib yugiradigan fidoyi inson bo’lishi kerak. Rahbar o’zi bajarayotgan ishiga ishonch bilan qarab yashashi va faoliyat yuritishi lozim.

“Biz hech kimni majburan rahbarlikka qo’yayotganimiz yo’q. Bu borada hech kimga zug’um ham qilinayotgani yo’q. Agarki, qaysi bir rahbarga shu siyosat ma’qul bo’lmasa yoki o’zi shu siyosatga munosib bo’lmasa, mardona kelib, endi, bu talablar juda kuchayib ketdi, meni o’z holimga qo’yinglar, men bu maqsadlarga loyiq emasman, deb aytishi lozim emasmi?

Men, mana, to’rt-besh yildan buyon ishlayapman, lekin bunday mard odamlarni juda kam ko’rayapman.

Ming afsuski, ayrim rahbarlarimiz aytgan gaplariga, yuritayotgan siyosatlariga o’zлари ishonmaydi. Goh u tomonga, goh bu tomonga shoh tashlab, “o’yin” qilib turadi. Irodasi mo’rt, iymoni sust bunday rahbarlarning hatti-harakatlariga qat’iyat bilan munosib baho berish lozim”.

Qashqadaryo viloyati xalq deputatlarining navbatdan tashqari sessiya-sida aytib o’tilgan gap-so’zlar bundan 17 yil ilgari bildirilgan fikrlar-ning davomi va yana bir bor to’g’riligini ko’rsatib turibdi.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon 61 marta viloyat xalq deputat-larining navbatdan tashqari sessiyalarida tashkiliy masala ko’rilib viloyat hokimlarini ishdan olish va ishga qo’yish bo’lib o’tdi. Bu tashkiliy masala-lar tahlil etib ko’rilmaga 50 ta viloyat hokimi zamon talablariga javob bera olmagani, rahbarlik mas’uliyatini og’ishmay bajarolmagani uchun ish-dan ketgan. Eng achinarlisi, ularning ko’pchiligi ishni g’ayrat va shijoat bilan yaxshi boshlab yomon yakunlashlaridir. Ular irodasizlik qilib atro-fidagilarning, qarindoshurug’chilikning, mahalliychilikning girdobiga tushib qolishlarida sodir bo’limoqda. Ayrim rahbarlar ma’lum bir vaqt o’tganidan keyin o’z shiga

va hayotiga sadoqatini yo'qotib qo'ymoqdalar. "Hayotda uchraydigan achchiq tajribalardan men o'zimga bir xulosa chiqarib oldim. Sadoqatli bo'lish uchun inson avvalo mard bo'lishi kerak ekan. ...

Sadoqatli odam boshiga qilich kelganda ham so'zidan, ahdu qaroridan qaytmaydi. Inson avvalo oilasiga, halqiga, vataniga sadoqatli, vafodor bo'lishi zarur.

Bugungi zamonda sadoqatli bo'lish qiyin. Oqim u tomonga tortadi, nafs bu tomonga, "o'yinchilik" boshqa tomonga. Shunday paytda odam agar mard bo'lsa, irodasi baquvvat bo'lsa, iymoni butun bo'lsa, u yoq-bu yoqqa og'ib yurmaydi"<sup>20</sup>.

Biz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosigina emas, balki o'z taraqqiyot yo'llini ishlab chiqqan va unga amal qilib yuksak natijalarga erishayotgan davlat va xalq sifatida dunyo xalqlarining e'tiboriga tushdik. Bularning barchasi Prezident Islom Karimov boshchiligidagi boshqaruvi tizimi rahbarlarining mehnati, sa'y-harakatlarining natijasidir.

Erishgan yutuqlarimiz tagida katta mehnat yotibdi, erishgan darajalarimizni ushlab turish va yanada dadil borishimiz esa vatanimizda boshlagan islohotlarimizni hayotimizga yanada faol joriy etish bo'yicha zarur qonunchilik va me'yoriy xujjatlar yaratilmoqda. Ammo ularga to'liq amal qilishda oqsamoqdamiz. Qonunlar yangi, me'yorlar yangi! Shular asosida ishlab chiqilgan dasturlar, tadbirlarni hayotga tadbiq etishda ayrim rahbar va xodimlarning tushunchasi, yangiliklarga munosabati va mas'uliyati, ish bajarish intizomi ko'p joylarda talab darajasida emas.

"Bir narsani yaxshi o'rganib olganimiz: minbarlarda, majlislarda so'zga chiqib, islohotlarni maqtaymiz, balandparvoz va'dalar beramiz, amalda esa – butunlay boshqa holat.

Bunday yuqumli kasallikdan, xo'jako'rsinga vaysashdan, rasmiyatçilik-dan tezroq qutilish kerak. Bunday holatning cho'zilishi, avvalo, islohotning o'ziga, ahamiyatiga va obro'yiga dog' tushrishi, oxir-oqibatda esa, odamlari-mizning islohotlardan ixlosi qaytishiga sabab bo'lishi mumkin"<sup>21</sup>- deb ogohlantirgan edi I.Karimov.

<sup>20</sup> Каримов И.А. Иктиносий ислоҳот: масъулиятли босқич. Т.: Ўзбекистон, 1994. 37-бет.

<sup>21</sup> Каримов И.А. Ижобий ишларимизни охиринга етказайлик. Т.: Ўзбекистон, 1994. 12-бет.

Bugungi globallashuv sharoitida eng muhim vazifa – xalqimizning, yoshlarimizning bor kuchini bunyodkorlikka safarbar qilish. Maktab va kasb-hunar kollejlarini tugatib ma'lum bir kasb egallagan yosh yigit-qizlari-mizni ish bilan ta'minlash, ularni nimalarga qodir ekanliklarini namoyon etishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Qishloq joylarida ish o'rirlari yaratish uchun imkoniyatlar cheksiz. Yangi ekin maydonlari ochish, tabiiy jihatdan yetarli imkoniyat bor bo'lgan joylarda asalarichilik, tovuqchilik, baliqchilik, polizchilik kabi sohalar bilan shug'ullanib, ulardan olingan mahsulotlardan turli-tuman konserva mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kabi qator ishlar turibdi. Har bir qishloqning o'z isterohat parklari, har bir maktab va kollejlarni mevali va manzarali daraxtlardan, chaman bo'lib ochilib turadigan bog'lar bilan o'rab olishdek ishlarni amalga oshirish uchun yetarli kuch-quvvatlar bor. Tashkil etaman desak, qanchadan qancha imkoniyatlar navbat kutib turibdi. Bularni barcha-sini amalga oshirish uchun rahbarlarimizda tashkilotchilik ishlariga alohi-da e'tibor va qunt talab etiladi, xolos. Rahbar tashkilotchi bo'lsa, sezgir va epchil, chaqqon bo'lsa, imkoniyat topadi.

Yo'l qo'yilayotgan kamchilik va nuqsonlar boshliqning, tashkilotching ijro intizomini, rahbar va mutaxassislardan topshirilgan ishning baja-rilishi ustidan talabchanlikni bo'shashtirib yuborayotganligi, ba'zi noqo-bil, temsa-tebranman, dangasa va ko'pincha esa ishni o'z holiga tashlab qo'yib, mas'ul xodimlar bilan murosa qilib kelinayotganligining oqibati bo'lib chiqmoqda. Men senga tegmayman, sen menga tegma qabifida ishga munosabat davlat ishiga va jamoa ishiga katta moddiy va ma'naviy zarar yetkazayotga-nini anglab yetishmaslik davom etmoqda.

"Eng avvalo rahbarlardan aql-idrok talab etiladi. Aql-idrokli bo'lish bilan bir qatorda, rahbar odam mustahkam irodali, iymoni butun, oriyatli bo'lishi shart. U bag'rikeng, ayni zamonda talabchan bo'lishi darkor.

Jasur, matonatli rahbar elning duosini oladi, mas'uliyatni anglay-digan, maqtovni o'ziga olib, xato va kamchiliklarni boshqalarga ag'daradigan, tili boshqa-yu, dili boshqa kimsalardan xudo saqlasin.

Bizga tashkiloti, tashabbus ko'rsatib, boshqalarni ham ergashtira oladigan rahbar kerak, chunki bunday rahbarlar xalqni jipslashtiradi,

savobli ishlarga safarbar etadi”<sup>22</sup>. Keyinchalik ushbu fikrlarni yanada davom ettirib “Biz ko‘pincha rahbar aqlli, dono, bilimdon bo‘lishi kerak, lekin bugungi kunda ularning o‘zi yetarli emas. Nega deganda, inson aqlli, dono, bilimdon bo‘lishi mumkin, ammo u hayotda yonib yashamasa, hammasi bekor”<sup>23</sup>.

Surxondaryo viloyatida 2004 yilning 1 iyunida bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari sessiyasida bildirilgan, “Rahbar qachon el-yurt ishonchini, e’tibo-rini qozona oladi? Qachonki yuragi, qo‘li toza, ko‘ngli ochiq, aql va zakovat sohibi bo‘lsa, uning tabiatida qat’iyatlilik bilan bilim, talabchanlik bilan adolat uyg‘un bo‘lsa, u o‘zi boshqaradigan odamlarning g‘am-tashvish-larini o‘z qalbidan o‘tkazishga qodir bo‘lsa” – degan fikrlari har bir yosh rahbar uchun dasturulmal bo‘lishi kerak.

Rahbar yuqorida ta’kidlangan so‘zlarga amal qilib faoliyat yuritadi-gan bo‘lsa, demak ish qayab turgan joyda muhit sog‘lom, odamlar kayfiyati ham yuqori bo‘ladi. Rahbar bunga atrofiga yosh va sog‘lom fikrlovchi, izla-nuvchan, tadbirkor va ishbilarmon, ishchan kishilarni ko‘paytirib borish bilan erishadi. Ammo tanish-bilishchilikka, mahalliychilikka asoslanib, qo‘lidan ish kelmaydigan, manmanlikka berilgan, boshliqdan boshqa atrofi-dagilarni mensimaydigan va avvalo o‘z manfaatlarini ko‘zlaydigan rahbar nosog‘lom vaziyatni keltirib chiqaradi, oqibatda tashkilot janjal, qarama-qarshilik va adovatga to‘la muhitga aylanib qoladi. Bunday joylarda na hamjihatlik bo‘ladi, na ishda baraka bo‘ladi. Dono xalqimiz “bir kun jan-jal bo‘lgan joydan qirq kun baraka qochadi” deb bejizga aytmaydi. Shuning uchun ham bundan ayrim rahbarlar doimo to‘g‘ri chiqarishga harakat qilish-lari kerak.

Ayrim rahbarlarda esa eski tuzumdan qolgan rasmiyatichilikka berilish hollari davom etmoqda. Bundaylar respublika darajasidagi ayrim ko‘rsat-gichlarni yozib olib, ularni qayta-qayta takrorlash, respublika rahbarining so‘zlarini keltirish bilan go‘yoki ishlayaptilar. Rahbarning bir yillik meh-nati yakuni, tuman yoshlarini nimalarga jalb etgani, ularga qancha yangi ish o‘rinlari topib bergani, sport va san‘at bilan shug‘ullanishlari uchun, ijodkor yoshlarga qanday sharoitlar yaratib bergani bilan baholanadi.

“... rahbarlik lavozimiga ko‘tarilgan kishilarning eng asosiy, eng muqaddas vazifasi – ularni tarbiya qilgan, bilim bergen, ishonch

<sup>22</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод ватан колсин. 2-том, Тошкент, Ўзбекистон, 1996 119-120-бетлар.

<sup>23</sup> Каримов И.А. Раҳбар, етакчи ўзи ёниб, ўзгаларни ҳам ёндириб яшаши керак. // “Халқ сўзи”, 2002. 22-февраль

bildirgan, yuksak martabaga munosib ko'rgan el-yurtiga vijdonan, halol xizmat qilish va doimo zimmasiga olgan mas'uliyatni sezib, his etib yashashdir. Rahbar-ning ishiga bahoni shu xalq, shu yurt beradi. Tarix tajribasi va sinovidan o'tgan mana shu haqiqatni hech qachon unutmasligimizni istardim” – deb ta'kidlagan yurtboshimizning ko'rsatmasi zamонавији rahbarlar faoliyati uchun bosh mezon bo'lib qolishi zarur.

Nemis faylasufi Alber Shveyser: “Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi – ma'naviyat va axloq. Qolgan barchasi ozmi-ko'pmi ikkinchi darajali”, deb yozgan edi. Hozir jahonda bo'layotgan voqealar bu fikrning qanchalik to'g'riligini isbotlab turibdi.

Madaniyat va qadriyatlar tizimida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi tamadduniy o'zgarishlarga olib keladi. Madaniyat, ma'naviy qadriyatlar, kishining, odamlararo munosabatlarning insoniylashuvi darajasini belgilaydi. “Agar madaniyat voqe bo'lgan, moddiylashgan qadriyatlar olami ekan, u o'zida qadriyatlarning butun tizimini jamlagan taqdirdagina to'laqonli hodisaga aylanishi mumkin. agar madaniy dunyoni barpo etishda qadriyatlarning muayyan toifasi e'tiborsiz qoldirilsa, madaniyat muqarrar kemtik bo'lib qoladi, ya'ni moddiy ashyoviy qadriyatlar qoldirilsa, u o'z mustahkamligini yo'qotadi yoki unda ma'naviy qadriyatlarning muayyan toifasi inkor etilsa, insoniylik darjasasi past (hattoki, inoniylikka zid) bo'ladi. mazkur xildagi madaniyatga ega bo'lgan jamiyatlarda ma'naviyatsizlik hukm suradi”<sup>24</sup>. Buning natijasida xalq, millat,jamiyat va oxir-oqibat davlat barbod bo'ladi.

Shunday paytda O'zbekiston taraqqiyotning “o'zbek modeli”ni ishlab chiqdi va milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayandi. Islohotlarning asosi inson va “Islohot islohot uchun emas, islohot inson uchun” shiori qat'iy amal qildi va qilmoqda.

Ma'naviyat insoniy munosabatlar dunyosini shakllantiradi, ularning tayanch asoslarini belgilaydi. O'z navbatida, har bir inson o'z hayotida qaysi yo'lni tanlashi ko'p jihatdan, uning qanday xislatlarga ega ekanligiga, uning qalbidan o'rinn olgan qadriyatlarga bog'liq.

Globallashuv jarayonlari ko'proq madaniyat-ma'naviyat sohasida ko'proq namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan globallashuvga dunyoni qamrab olgan mdaniy inqilob desa ham bo'ladi. insoniyat shu tarzda rivoj topib borsa, kelajakda “megajamiyat, “megamada-niyat”,

<sup>24</sup> Чавчавалзе Н.З. Феномен бездуховности. – Тбилиси, 1991. 24-с.

“superetnos”ning shakllanishi haqida yozishmoqda. Bu haqiqatga o‘xshaydi, chunki global tus olgan axborot tizimi, aholining avj olayotgan keng migratsiyasi kabi hodisalar ro‘y bermoqda. Masalan, o‘zbekistonda tug‘ilgan, o‘zbek, Rossiyada yashab, Angliyada o‘qigan, Xitoy yoki J.Koreyada ishlayotgan va har gal o‘ziga xos muhitga tushgan kishi o‘sha yerning odat va urflariga moslashishga majbur bo‘lgan kishini madaniyati qanaqa deyish mumkin? “migratsiyaning madaniy oqibatlar juda jiddiy. Bugun butun dunyo alohida milliy madaniyatlarни qayta ishlovchi ulkan “domna o‘txonasiga” aylanmoqda”- deb yozadi MDUNing Sotsiologi va politologiya jurnali (vestnik MGU Seriya 18. Sotsiologiya i politologiya. 2005. №1. 138-s.).

\*\*\*\*\*

Boshqa mutaxassis Artur Shlezinger “Amerikaning tarqoqligi” kitobida: “Xalq-ni yo‘q qilish yo‘lida dastlabki qadam qo‘yildi – uni xotirasidan judo etish boshlandi. Keyingi bosqichda uning kitoblari, madaniyati va tarixi yo‘q qilinadi. So‘ngra kimdan-dir yangi kitoblarni yozishni, yangi madaniyat va tarixni o‘ylab topishni iltimos qilsan-giz, bas, xalq asta-sekin o‘zligini ham, qanday paydo bo‘lganini ham, kimlarning avlodи ekanini ham unutadi-qo‘yadi”. Bu fikrga asosan aytish mumkinki, boshqalarga tayyorlangan ovqatni birinchi bo‘lib amerikaliklarning o‘zları yeyishlariga to‘g‘ri keladi.

**Ma’naviy tahdidlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘lib kelmoqda:**

1. Millatlar o‘rtasida adovat uyg‘otish uchun millatchilik va shovinizmni tarqatish tahdidi sifatida ko‘rinadi. Mamlakatimizdagи turli millat vakillari o‘rtasida adovat keltirib chiqarish bilan jamiatini bo‘lib tashlashga va ahillikni yo‘qotish uchun turli xil gap-so‘zlar tarqatiladi. O‘zidan boshqa millat vakillariga nafrat bilan qarab ularni kamsitadi va mamlakatda turli nizolar keltirib chiqarishga urinadilar. Yurtimizda bu ishlari utmagach, qo‘shni qirg‘izistonida bir necha bor shu usul bilan bizni tubsiz jargat ortishlar bir necha bor intilishdi.

2. Dinlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishga urinib, ekstremizm va boshqa buzg‘unchilarni qo‘llab-quvvatlashlar bo‘lib o‘tdi. Toshkentda, Namangan, Andijonda, Samarqandda bunday hollar turli yillarda kuzatildi. Bu bilan ular o‘zlarini haqiqiy imon-e‘tiqodli sanab, boshqalarni esa murtad, ya’ni dindan qaytgan hisoblay boshlashadi. Bunday hollarni Suriya misoldida yorqin kuzatishimiz mumkin.

3. Vatandoshlarimizni islom va boshqa dindagilarni dinidan qaytib boshqa dinlarga sektalarga da‘vat etish orqali tahdidlar mavjud.

Buni missionerlik va prozelitizm shaklida amalga oshirishlar Chirchiq shag'rida, Xorazm, Qoraqalpog'iston respublikasida 2006-2007 yillarda keng tarzda kuzatilgan edi. Bu sektalar ham xalq birligini hamjihatligi buzishga qaratilgan harakatlardir.

4. Saraqand, Buxoro, Navoiy va Farg'on'a vodiysida xalqimiz o'ttasida keng tarqalgan naqshbandiya tariqatidagi insonparvarlik g'oyalariga asos-langan holda tarkidunyochilik, faol ijtimoiy jarayonlardan chetlashish va shu asosda bircyoqlama o'z diniy tartiblarini joriy etishga, ya'ni murshidning so'zlariga so'zsiz itoat etuvchi zombilashgan diniy jamoa-lar tashkil etishga harakatlar bo'ldi. Andijondagi akramiyalar harakati shularga o'xshash desak bo'ladi, chunki ular tashqaridan maxsus ko'rsatmalar va moddiy jihatdan ularning sa'y-harakatlari ta'minlab turiladi. Ularning orasidan ayrimlari Rossiya orqali Afg'oniston va Pokistonga tayyorgarlik uchun jo'natib turiladi.

5. Xalqimizning ming yillar mobaynida to'planib kelgan milliy qadriyat-larimizni, o'zaro ahilligimizni, jamiyatimizni mustahkamlashga xiz-mat qiladigan an'analarimizga zid bo'lgan fikrlarni, odatlarni joriy etishga urinishlar tarzidagi tahdidlar mavjud. Ular mahalla singari boshqaruva organimizga soya solishga, uning jamiyatdagi rolini yerga urishga va oilada ayolning o'rnini buzishga, ularni qoralash jamiyatimizning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan oilalarni barbod etishga qarata gap-so'zlar yuritadilar. Bir tomonidan erkaklarni ayollarga qarshi qayradilar, ikkinchi tomonidan ayollarni g'arb turmush tarziga ergashishga chaqiradilar. Aslida prezidentimiz sharqona ayollarga e'tiborini dav-lat siyosati darajasida olib borishi bilan oilada erkakning ma'naviy tayanchi, mehribon ona, ilmli va ma'rifatli, zamонави тадбиркор айollar uchun juda ko'p imtiyozli sharoitlar yaratib, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun katta shart-sharoitlar yaratib beril-moqda. Bizning dono, mehr oqibatli ayollarimizning farzandlari Shiroq va Tumaris, Jaloliddin Manguberdi va Temur Maliklarni, Amir Temur va Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobir Mirzo kabi harbiy vatanpavarlarni sarkarda va davlat arboblari hamda Xorazmiy, Farg'oniy, Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Termiziyy, Nasafiy, Samarcandiy kabi yuzlab, minglab jahon ilm-faniga asos solgan va uni yuksaklikka ko'targa allomalarни dunyoga keltirganlar tarbiyalab voyaga yetkazgan avlodning nasl-nasablari bo'lgan o'zbek ayollaridir. Ular oila va mahalla birligiga rahna solish orqali milliy qadriyatlarimizga putur yetkazishga urinadigan tahdidlar bor. "Odam savdosi" va fohisha-bozlikka yo'naltirishlar orqasida ham shu toifa kishilari turibdi.

6. Tarixiy xotiramizni buzishga asl tariximizni o'zga tarzda yoritishga qaratilgan ma'lumotlar orqali go'yoki haqiqatni yuzaga chiqarish orqali o'zligimizni unutib o'zgalarga ergashtirish maqsadida, audiova video disklarni tayyorlab ularni maktablarda, kollej va litsey bolalariga, oliy o'quv yurti talabalariga arzon yoki umuman tekinga berishadi. Tarixiy xotirani buzish orqali vatanparvarlik tuyg'ularini so'ndirib, o'z yurtiga befarq bo'lib, keyinchalik o'z yurtiga xiyonat qilishga, vatanni sotishgacha borib yetishadilar. Yaqinda televizorda ko'rsatgan Surxon-daryolik yoshlar o'z-o'zlaridan sotqinlik yo'liga tushishmagan. Tarixiy shaxslarimizni o'ta salbiylashtirib yoritilgan risolalar uchrab turadi. Dinga oid ayrim qalbaki xadislarni qushib yuborishlar uchraydi, masalan Muhammad (sav) (go'sht haqida) aytmagan xadisi yoritilgan.

7. Xalqimizning mustaqillik yillarda qo'lga kiritgan yutuqlariga shubha uyg'otishga kamsitib baholashga rag'batlantiruvchi kayfiyatni tarqatishga harakatlar avj oldirilmogda. Har saylov yillarda prezi-dentimiz sha'ni haqida turli bo'htonlar tarqatila boshlanadi. shunday gap-so'zлarni eshitgan kishilar esa o'ylamay-netmay ularga ijodiy yondoshib, ustiga nimalarnidir chatib yana tarqatishga kirishib ketadi-lar. Yutuqlarimiz ko'z oldimizda erishilyapti, vatandoshlarimizning mehnati bilan shahar va qishloqlarimiz tubdan ijobiy tomonga o'zgara-yapti. Amma barcha yutuqlarimizga shubhalanish, ularni mensimaslik ayrim yoshlарimizni milliy qadriyatlarimizdan, milliy oriyatimizdan, g'ururimizdan begonalashtiradi. Yoshlarimiz esa o'zimiz yomon otliqqa chiqarish bilan ularni g'arb olami bag'rige otamiz! Ularni ongingin o'zgacha kayfiyatlar bilan zaharlanishiga yo'l ochib beramiz. Ilm-fan, sport va san'at sirlarini egallash orqali, zamoniaviy kasb-hunarlarni egallab yurtning kelajagini yaratuvchilarga aylantirish yo'lidaги tinimsiz harakatlarimiz ularni aqlan dono, ma'nан yetuk, jismonan baquvvat va albatta baxtli bo'lishlarini ta'minlaydi.

\*\*\*\*\*

Armiyani isloh qilish nimalardan iborat (7-tom 401-404 betlar)

Karimov I.A. O'zbekiston XX! asrga intilmoqda. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T.7. – T.: "O'zbekiston", 1999. 401-404 betlar. Armiyani isloh qilish nimalardan iborat (7-tom 401-404 betlar)

Karimov I.A. Xotira chirog'i o'chmaydi. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T.7. – T.: "O'zbekiston", 1999. 407-411 betlar.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Tafakkur” jurnalı bosh muharriri savollariga javoblarida “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin” deb nafaqt bizlarni yagona mustaqillikni mustahkamlash mafkurasi atrofida birlashish, uyushishga, balki jamiyatimiz mafkurasining o‘ziga xos barcha jihatlarini to‘liqv yoritib berdi. Hozirgi zamonda bizga ayniqsa, yoshlarimizga bo‘layotgan va yana bo‘ladigan mafkuraviy, ma’naviy tahdidlardan ogohlantirib o‘tdi.

“Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin”.

Ko‘p sinovlar, azobu uqubatlar, xatolar, fojialar, urushlar, qatag‘onlarni boshidan kechirgan asrimiz poyoniga yetayotgan, insoniyat yangi asr bo‘sag‘asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o‘zaro kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba’zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda.

Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtida dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo‘lsa-da, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to‘xtagani yo‘q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – inson, avvalambor yoshlar qalbini egallah, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgituyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish, uni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko‘ra dahshatliroqdir, deb ta‘kidlaydi Islom Karimov “Tafakkur” jurnalining bosh muhbir savollariga javob berib.

Ilgargi zamonalarda ham “... har qanday zo‘ravon bosqinchilar va yurtimizda hukmronlik qilmoqchi bo‘lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun avvalo milliy madaniyat va an‘analarimizni yo‘q qilish, shu yo‘l bilan bizni ma’naviy jihatdan zaiflashtirishga, kuch-qudratimizni yo‘qotishga harakat tqliganlar. Bu haqiqatni hech qachon yodimizdan chiqarmaslik kerak”.

Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning man-faatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqatilayotgan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlar ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi. Axborot asri, elektronika asri deb atalgan XX asrning niyoyasida – bugungi davrimizda bu ta'sirlardan holi bo'lish deyarli imkonsizdir. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, "bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega". Eng qizig'i, shu bilan birga, kishi doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish niyoyatda qiyin.

Mana shunday bir vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berish amrimahol.

<i>G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikr ga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishi mumkin</i>
<i>Eng dahshatlisi – fikr qaramligi, tafakkur qulligi milliy mafkura – millatni birlashтирувчи bayrogdir</i>
<i>Mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'gotadi</i>
<i>Ma'naviyatmiz qo'limizda yengilmas kuchga aylansin</i>
<i>Millatimiz, xalqning hamjihatligi taraqqiyot garovidir</i>
<i>Ongli turmush – jamiyat hayotining bosh mezoni</i>
<i>Maqsadsiz – erkin shaxsni tarbiyalash</i>
<i>Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari</i>
<i>Jaholat – ma'rifatning kushandasasi</i>
<i>Jahonga o'z so'zimizni aytaylik</i>
<i>Yurtimizning xavfsizligi – siyosatimizning bosh yo'nalishi</i>
<i>Eng oliy – maqsadi xalqning omoniligi</i>
<i>Yurtimizning xavfsizligi – siyosatimizning bosh yo'nalishi</i>

Bu hakda gapirar ekanmiz, ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Shaxsan o'zim bu illatdan jirkanaman. Shu illatga chalingan odamni ko'rarga ko'zim yo'q. Bu sotqinlikdir. Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'limgan, ularga ishonmagan odam

qo‘rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo‘lgan odam rahbarlik kursisiga o‘tirib qolsa bormi, u yerda osoyishtalik yo‘qoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o‘rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo‘lishimiz, ularga yonimizda o‘rin bo‘lmasligi lozim. Agar tevarak-atrofimizdagи birorta kishida shunday alomatlar sezilayotgan bo‘lsa, ularni darhol tarbiyamizga olib, to‘g‘ri yo‘lga boshlashimiz kerak.

Shu munosabat bilan tarixda ko‘p marta o‘z tas-dig‘ini topgan, men ham o‘z tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: **agar biz ahil bo‘lsak, elyurt manfaati yo‘lida bir tanu bir jon bo‘lib yashasak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi”.**

\*\*\*\*\*

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini har tomonlama musthkamlash bora-sida bir qator vazifalarni amalga oshirib kelmoqda. Har bir davlat jahon davlatlari hamjamiyatida o‘ziga xos bo‘lgan taraqqiyot o‘ylini oqilona tanlashi bilan o‘ziga mos o‘rinni bosqichma-bosqich egallab boradi.

Sobiq Ittifoq zamonlarida qoloq, o‘zini o‘zi boshqarishga va boqishga, hayot kechirishga qurbi yetmagan, hartomonglama nochor bo‘lib, “markaz boshqaruviga qaram” bo‘lgan o‘lkadan o‘z tabiiy boyliklari va resurslariga tayangan, o‘z sarhadlarini, xalqi tinchligi va osuda hayotini himoya qilishga qodir bo‘lgan, bugungi kunda taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ning tarkibiy qismi bo‘lgan iqtisodiy strategiya asosida izchil va barqaror sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy mustaqil va suveren davlatga aylandi.

O‘zbekiston keyingi besh yil mobaynida iqtisodiy o‘sish bo‘yicha har yili o‘rtacha 8-10 foizli ko‘rsatgichga erishilmoqda.

Buni Prezidentimiz Islom Karimovning mustaqilligimizning 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali bayram minbarida so‘zlagan tabrigida ta‘kidlab o‘tgan raqam-larda ko‘ramiz. O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot 2000 yilga nisbatan 3,1 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda 2,6 marta ortib ketdi. Eksport hajmi 4,4 barobar, nominal ish haqi solishtirma narxlarda 22 marta, nafaqalarning o‘rtacha miqdori 12,7 barobar, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromad esa 8,4 barobar ko‘payishiga erishildi.

Tadbirkorlikning huquqiy asoslari yaratildi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo‘l ochildi va davlat tomonidan bu harakatni qo‘llab-quvvatlash uchun kredit tizimi ishlab

chiqildi va amal qila boshladi. Bugun sanoat korxonalarida tarmoqlararo hamkorlik yanada mustahkamlanib, ishlab chiqarish jarayonlariga eng zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalar keng jalb etiloqda.

Mustaqilligimiz bergen barcha imkoniyatlarning ifodasi bo'lgan bunday ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar davlatimiz iqtisodiyotini izchil rivojlan-tirish va xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida bir davlatning mustaqilligini va taraqqiyotini ta'minlash uchun muhim bo'lgan yoqilg'i-energiya va oziq-ovqat bo'yicha boshqa davlatlarga qaram bo'lisdan to'liq ozod bo'ldik. Yoqilg'i va energiya bilan o'zimizni ta'minlash uchun bir qator zsonaviy ob'ektlarni qurib ishga tushirdik. Mustaqillik yillari mobaynida g'alla yetishtirishda hosildorlikni 17 sentnerdan 55 sentnerga ko'tarishga erishilib, bu yil 7 million 610 ming tonna halla yetishtirishga va yig'ib olishga tuyassar bo'ldik.

Biz xalqimiz salomatligini mustahkamlash tizimini yaratishda yangi yo'ldan borib, bu sohada jahonning yetakchi davlatlari qatoridan o'rinn oldik, onalar o'limi 3,2 barobar, bolalar o'limi 3,4 barobar kamaytirildi, vatandoshlarimizning o'rtacha umr ko'rish darajalari 66 yoshdan 73,5 yoshgacha uzaytirishga muvaffaq bo'ldik.

Ta'lim sohasida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va 1997 yildan joriy etilgan tizimimizni dunyo mutaxassislari tomonidan zamonamizning eng yaxshi tizim-laridan biri sifatida tan olinib, o'tgan yili Toshkent shahrida xalqaro konferen-siyada tizim va uning tajribalari hartomonlama o'rganib chiqildi. Shuningdek, ahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida amalga oshirib ijobjiy natijalarga erishila-yotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq yoshlarini uy-joy bilan ta'minlash borasida amalga oshirib borayotgan ishlarimiz xalqaro miqyosdagi anjumanlarda o'rganil-moqda. Ilm-fan, madaniyat va san'at, bolalar sportini rivojlantirishga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilmoqdaki, bularning natijalarini yoshlarimizning turli ko'riktanlovlardarda, anjuman va jahon sport birinchiliklarida erishayotgan yutuq-lari bo'lmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugun har bir yurtdoshimiz bilan suhbatlashsak ularda Vatan taqdiriga dahldorlik hissining yuqoriligini, mamlakati-mizni modernizatsiyalash va demokratlashtirish sohasidagi o'zgarishlarga, fuqarolik jamiyatini barpo etish konsepsiysi asosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy islohotlarning bevosita ishtirokchisi bo'layotgani har birimizni yana ijobjiy samaralarga erishishga ruhlantiradi.

Haqiqatan ham biz ma'nан yuksalmoqdamiz, axloqan, jismonan va g'oyaviy jihatdan toblanib, moddiy jihatdan baquvvatlashib bormoqdamiz. Bu yutuqlarimizning asosiy omili yurtboshimiz Islom Karimov bayram tabrigida ta'kidlaganidek, "biz bugun o'zi-mizning dunyoqarashimiz, ongu-tafakkurimiz, hayotga, mehnatga, yon-atrofimizga munosaba-timiz bilan kechagi – 90 – yillardagi odamlar emasmiz".

Hayotimizning barcha sohalarida sodir bo'layotgani singari, O'zbekiston Qurolli Kuchlarida amalga oshirib borilayotgan islohotlarimiz ham zamon talablari darajasida olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi Toshkent, Chirchiq, Samarqand, Jizzax harbiy oliv o'quv yurtlarida va jahondagi harbiy vaziyat talab taqozolarini inobatga olgan holda Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti va O'zbekiston Tibbiyot akademiyalarida qurolli kuchlarimizning to'la qonli faoliyatlar uchun zarur bo'ladigan mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Harbiy oliv o'quv yurtlarimizda ham yangi ixtisosliklar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Har bir inson o'z vatani o'tmishini anglab yetishi, bugunini uchun zarur bo'ldigan bilim va tajribalarni egallashi, o'z faoliyatining kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilishga qodir bo'lishi, uning fuqarolik burchi hisoblanadi.

Bizning zamonomiz axborotlashgan jamiyat, jahonda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalar haqida turli-tuman axborotlarning tarqatilishi yosHLarimizning fe'l-atvoriga salbiy ta'sir etmoqda. Ayniqsa, "ommaviy madaniyat" niqobi ostida tarqatila-yotgan xabarlarning ta'siri yomon bo'imoqda. G'arbona kiyinish, o'zaro muomala madaniya-tining pasayib borayotgani, ajdodlar merosiga bepisandlik bilan yondoshish, hayotga yengil-yelpi qarash va uni kayfu-safoda o'tkazishda hech qanday mas'uliyatni his etmaslik kabi salbiy jihatlar ma'naviy, informatsion-ruhiy tahdid va xurujlarning ta'siri oqibatlari deb qarashimiz lozim.

Mamlakatimizda 1996 yildan milliy ma'naviyatimizni, 2000 yildan boshib milliy istiqlol g'oyamizni alohida fan sifatida o'qitilishini yo'lga qo'yish borasidagi tadbirlarimiz qanchalik asosli ekanligini g'arb olami yosHLari o'rtaSIDA notabiy va o'ta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan bir jinsli oilalar qurishni davlat tomonidan qonunlashtirib qo'yilishini talab etishlarni inson huquqlari bilan bog'lab ko'chalarga chiqishlar ko'rsatmoqda. Davlatning harbiy qudrati asl farzandlarining

fidoyi bo'lib ona-Vatan himoyasiga o'zining hayotlarini bag'ishlashlarida va ajdodlari-ning harbiy vatanparvarlik qasamyodlariga sodiqligida namoyon bo'ladı.

Bizning oliv harbiy bilim yurtlarimiz yosh ofitser kadrlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonlarida xalqimizning 3000 yillik davlatchilik tarixiy taraqqiyoti mobay-nida yaratilgan va to'plangan boy harbiy vatanparvarlik sohasidagi qadriyatlariga va umuxalq merosini o'rganib va hartomonlama egallab borishlariga doimiy tarzda alohida e'tibor bilan qarab kelishmoqda.

Harbiylar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-professional qatlam sifatida nafaqat o'z davlatining fuqaro sifatida, balki qurilajan fuqarolik jamiyatining faol quruv-chisi va himoyachisi sifatida jamiyatning xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatni ham barjarishga doimo shay turadi. Fuqaro sifatida o'z ma'naviyati va axloqi, turmush tarzi va madaniyatini shakllantirib boradi va o'shalar asosida harbiy professionalizmi qo'nikmalarini hosil qilib, ularning bajarilishini ta'minlab kelishi lozim.

Har bir davlatning Qurolli Kuchlari, armiya va jamiyatning o'zaro aloqalarini mazkur mamlakatda amal qiladigan barqaror va an'anaviy bo'lgan fuqarolik jamiyat qadriyatları va insoniy fazilatlarining zamонавији ofitserlar ongida shakllanganligi va qalblarida mustahkam o'rин олганлиги bilan ta'minlanadi.

## XIV &. ZAMONAVIY OFITSERNING INTELLEKTUAL SALOHIYATI

Mustaqillik barcha sohalarda bo‘lgani singari qurolli kuchlarimiz saflarida xizmat qiluvchi zamonaviy ofitser kadrlardan ona-Vatanimiz sarhadlarini qo‘riqlash orqali yurtimiz tinchligi va xalqimizning osoyishta hayotini ta’minlash ulardan globallashgan sharoitdagи barcha fan va texnika yangiliklarini, ayniqsa harbiy sohada sodir bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishlarini taqozo etmoqda.

Mustaqilligimizni avaylab – asrash va uni yanada mustahkamlash, birinchi navbat-da milliy ma’naviyatimiz va g‘oyamizni chuqur o‘zlashtirib borib, onglerida shakllanti-rish va qalblariga singdirishlari yosh ofitser kadrlarimiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Milliy g‘oyamizni har tomonlama egallab olish o‘zligini, ayniqsa milliy o‘zligini anglashni, milliy ma’naviyatimizni har tomonlama yuksak darajada egallab borish, harbiy-vatanparvarlik sohasida davlatchiligidimizning uch ming yillik tarixi davomida Vatan ozodligi va obodligi yo‘lida aziz tuprog‘imizni o‘z qonlari va jonlari bilan muqaddaslashtirgan ajdodlarimizning boy tarixiy meroslarini o‘rganib borish bilangina erishish mumkin bo‘ladi.

Hozirgi zamon ofitserlari davrimizning har qanday talablariga javob berish-lari nafaqat milliy g‘oyamiz va ma’naviyatimizni, balki jahon davlatlari harbiy qo‘sishlari hayotlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan ogoh bo‘lganda nafaqat ular haqidagi axboratlarga ega bo‘lishni, balki ularning tillarini, maqsadlarini bilish uchun harbiy oliy ta’lim talablari asosida o‘qitilishi joriy etilgan barcha fanlarni har tomonlama chuqur egallab borishi uchun doimiy tarzda sa’y-harakatda bo‘lishlari kerak.

## XV &. ZAMONAVIY OFITSERNING AXLOQIY MADANIYATI

Insonning ichki boy mazmuni va tashqi qiyofasi bilan muvofiqlashgan bo'lsagina bunday kishini madaniyatli, ziyoli deymiz. Axloqiy madaniyat – bu axloqiy ong va axloqiy sifatlar, boshqa kishilarga suhbatlashish jarayonida shaxsiy ta'sir etish madaniyatidir. Shaxsiy ta'sir etish, ma'lumki katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek ofitserining ichki madaniyatining asosiy jihatlari bo'lib keng darajadagi ma'naviy qadriyatları, hartomonlama nazariy va amaliy tayyorgarligi, boy tajribasi tashkil etadi.

Ofitserning axloqiy madaniyatini va uning harbiy faoliyatini ishchanlik, aniqlik, puxtalik, vazifani o'z vaqtida bajarishlik, halollik, g'ayratlilik kabi sifatlari bezaydi. Ularga amal qilish ishchan muhitni yaratadi, bunday holatda ishining mahsulдорligi sezilarli o'sadi va ofitser faoliyatining samaradorligi yuksalib boradi.

Ofitserga qo'l ostidagi xizmatchilarga buyruq va ko'rsatmalar berish huquqi berilgan. Bunda ofitserdan xizmat vazifasini bajarishda har bir shaxsning o'ziga xos o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olishni taqozo etadi, bosiqlik, ham suhbatdoshini bo'lmay turib tinglay bilish, jahlini va alamini bosa bilishi kerak bo'lmasa bular ayrim holatlarda oxirigacha o'ylamay-netmay harakat qilishga va xulosalar chiqarishga va qarorlar qabul qilishga olib keladi. Tarbiya ko'rgan ma'naviyatlari va axloqli ofitser odatda qo'l ostidagi xizmatchilar tartibni yoki qoidani buzganlarida agar sharoit imkon bersa, hissiyotga berilmay osoyishta holatda o'ylab turib qaror qabul qiladi. U yoshlarni og'ir va bosiqlik bilan o'ylab ish qilishga va har qanday ishga mas'uliyat bilan yondoshishiga o'zining faoliyati namunasi bilan o'rgatib boradi, chunki harbiy xizmatchining kayfiyati bajarayotgan xizmat ishiga xalaqit bermasligi kerak.

Betakkallufsizlik, ya'nii insonga behurmatlik bilan qarash, qo'l ostidagilarning ishidan doimo biror kamchilik topishga harakat qilish, sensirash, kamchiliklariga marhamatli bo'lib o'rgatmasliklar salbiy oqibatlarga olib keladi. Oshna-og'anigarchilik, nojo'ya ishlarga beparvo qarash, ma'lum bir ongi pastroq guruh doiralarda "boshliq-yaxshi odam", "Ko'yakda to'g'ilgan bola" degan noto'g'ri nom qo'yishadi, ammo bunday nom hech kimni bezamaydi ham, hech kimga hech qanday foyda keltirmaydi.

Past tâlabchanlik albatrâ harbiy intizomga, o'rnatilgan tartiblarga, jangavor tayyorgar-likka putur yetkazadi, xolos. Xizmatdagi axloqiy munosabatlarda doimo xushmuomalali talab-chanlik, do'stona puxtalik, o'zini tuta bilishlik va bosiqlik bo'lishiga amal qilib borish lozim. Ayrim holatlarda ba'zi bir o'rtoqlar vaziyatga qarab turib zdilik bilan bag'rikenglikdan tushunib bo'lmaydigan chatoq kayfiyatga, axloqiy sabrsizlikka o'tib ketib qoladilar, bundaylarni hardam xayol deyishadi.

O'zini nazort qilib, bardoshli bo'lib ish tutish – ofitser madaniyatining, ma'naviyatining majburiy sifati bo'lishi kerak. axloqan tarbiya ko'rgan kishi o'ziga doimo yuqori talablar qo'yadi. Shaxsning o'zi axloqiy talab va qoidalarga amal qilmay boshqalardan talab qilsa, bunday kishilar hech qachon atrofidagilarning o'rtasida obro' ham qozona olmaydi, o'z-o'zidan yomon illatlar botqog'iga tushib, cho'kib boraveradi, ham jamoada ham oilasida ma'naviy-axloqiy qiyofasini yo'qotadi.

## XVI &. ZAMONAVIY OFITSERNING MA'NAVIY – AXLOQIY QIYOFASI

Urush har qanday insonning barcha ma'naviy fazilaqlarining namoyon bo'lishiga olib keladi, o'z irodasining me'yorlarini ko'rsatishi bilan ofitser faoliyatining boshqa turlaridan keskin farqlanadi. Shtaynmts o'zining "Sotsiologik urushlar" kitobida quyidagi larni izhor etadi. "Hech narsa insonda bor bo'lgan layoqat va iqtidorini, o'ziga o'xshashlar bilan kurashishidagichalik rivojlantira olmaydi". Bu birinchi navbatda o'zini harbiy xizmatga bag'ishlaganlarga taalluqli bo'lib, harbiy tarbiya orqali o'zidan ilgari xizmat qilib o'tgan ofitserlardan meros qilib olgan va o'zining harbiy faoliyati va unga tayyorlanish davomida egallab boradi.

Bu hozirgi ofitserlik unvonlarini olayotganlarga taalluqli emas, chunki ular ofitserlikning ma'naviy merosini o'ziga to'liq tushunib o'zlashtirib olmaganlardir.

N.Xrushev hech qanday asossiz kavaleriya generali, L.I.Brejnev SSSR Marshali va besh marta qahramon unvonlarini olgan edi. Argentinalik anarchist de Gevera esa Kubada o'zini o'zi mayor deb atay boshlagan edi. Ofitserlik korpusidagi bunday parazitlar buyruq berish qobiliyati va taktik sezgirlikka ega bo'lishi mumkin, ammo haqiqiy ma'naviy ruhga ega bo'lib burchni bajarish uchun o'zini o'zi harbiy xizmat va vatan uchun qurbon qilishdan yiroq bo'lishadi.

"Hayotda kim o'limga, qurbon bo'lishga tayyor bo'lsa, faqat o'sha kishi yashashga loyiq bo'ladi" deyiladi askarlar qo'shig'ida. "Yashamoqni bilingmi, o'immoqni ham bilmog'ing darkor. Haq'ish yo'lida kurashib halok bo'lgan inson o'limdan ustun turadi" deyishgan Shiroq bobomiz zamonlarida.

O'tgan asrning oxirlarida harbiy sohani tushunishni hurmat qiluvchi general Moltke, ta'kidlab "urashda xarakterning o'ziga xos jihatlariga ega bo'lishni tushunib va anglab yetishdan ko'ra katta kuchga ega bo'ladi", hozirgi raketa, djetalar, radarlar va elektron miyalar, ofitserlar ruhiyatidagi texnika va texnik bilimlardan ko'ra ustivorlik qiladi. Bizning asrimizda ofitserlar texnik bilimlarga keng tarzdagi muhitojlik sezdilar, asrning boshida esa har qanday qilib bo'lsada jangni g'alaba bilan yakunlash uchungina harakat qilib texnikaga yetarli darajada e'tibor berishmas edi, endi bo'lsa texnik bilimlarini har tomonlama kengaytirishi va shu bilan birga o'zining harbiy-ma'naviy ongini saqlab qolishi zarur.

Amerikalik general Bredlinning ta'kidlashicha, Amerika Qo'ma Shtatilik askar – jahondagi eng to'la-to'kis individualist hisoblanishadi, ya'ni ular zamon talablariga javob berishadi, har bir askarga qo'yilgan talablarni bajarishga qodir: mustaqil jangchi bo'lishga qodirlar. German soldat esa o'qishining oxiridagi 7 kunni o'rmonda kompassiz, sharoitdan kelib chiqib yashirin tarzda harakat qilish, o'rmonda iste'molga yaroqli oziq-ovqat topish kerak, shuning uchun uni kazarmadan 100 km o'zoq joyga tashlashadi va noma'lum joydan uch kun ichida, bosib o'tadigan yo'llarida taktik vazifalarni bajargan holda yetib kelishi kerak bo'ladi. Shunday qilib individual qobiliyatları rivojlantirib boriladi. Bunga moyillik xalqda davom etib kelmoqda, ammo har yili 10000 lab nemislar harbiy hayotga bo'ysunish maqsadida fransuzlarning chet ellik Legionlariga borib kirishadi.

Agarda har bir askar mustaqil va tashabbuskor bo'lishi kerak bo'lsa, demak albatta ofitser shunday bo'lishi shart. Faollik, "faollik harbiylarning eng muhim qadr-qimmati bo'lishi kerak" deb aytgan Suvorov. Ofitserga faoliyat va tashabbuskorlik kerak, ya'ni faol va serg'ayrat bo'lib boshqarishi va vazifalarni bajartirishi kerak, birinchidan, ikkinchidan esa, qo'l ostidagilarga namuna ko'rsatishni bilishi shart. Askar ofitserning orqasidan borganda hech narsadan qo'rmasligi kerak. Amir Temur qo'shining rahbarlari doimo qo'shining oldingi saflarida bo'lib boshqalarga jangga tashlanish namunasini ko'rsatishi bilan boshqalarni ruhlantiradi deydi.

Ofitser mas'uliyatdan qo'rmasligi kerak, mas'uliyatni burchi deb bilishi lozim. Ofitserlar faoliyatida mas'uliyat va tashabbuskorlik doimo juftlikda yurishi lozim. Bu ikki sifat ofitser faoliyatida ajralmasdir. Zamonaviy ofitserlarga bu sifatlar ilgarigi ofitserlardan ko'ra ko'proq keraklidir, chunki ilgarigi urushlarda ularning qatorlari zich bo'lib, qat'iy belgilangan harbiy tartibda: urushdagi bosh ko'tarishlar, to'liq tartibsizliklar va tayyorgarliksiz jangavor safga tizilish va harbiy harakatlar albatta qonun asosida bajarishi talab etilgan. Har bir ofitser o'z burchini bajarayotganida o'z tafakkuri bilan va harbiy tajribasi bilan birligida harakat qilishi darkor. Vaholanki, ilgarigi buyruqni bajarish bilan hozirgi davrdagi qonun doirasidagi buyruqni ijodiy tarzda bajarish sharoitida ham harbiy sarkardalarimiz bo'lmish Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Boburlarning o'gitlari bo'lmish va doimo ofitserlardan talab etilgan: "jasorat va mardlik ko'rsatish, ziyrak va sezgir bo'lish, uzoqni ko'ra bilish, tadbirkorlik - ya'ni ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va xushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir, g'anim lashkarini yengish

go'shining ko'pligi bilan emas, mag'lub bo'lish esa sipohining kamligidan bo'lmaydi, balki g'olib bo'lmoqlik (tangrining) madadi va bandasining tadbiri bilandir, ishning qanday yakunlanishi yashirin bo'lsa, aqlilik va xushyorlik bilan kengashib turib tartib-intizom bilan harakat qilishni tavsiya etadi. Bir ishga kirishmay turib, undan qutilib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'y deydi. Amir Temur bobomiz Dilkash, mo'tadil bo'lish, qoidaga amal qilish, ko'z bilan chamlash, tezkorlik, shiddat, siqunga olish, insonparvarlik, tinchitish, unutish" kabi sifat va fazilatlarni unutmayslik va ularga qat'iy amal qilish orqali ofitsers yoshlarni boshqara oladi. Keyingi oxirgi uchta o'gitni amalda bajarilishini esa o'z ichimizdan chiqib, xorijlik turli guruuhlar, ayniqsa terroristlar, ektremistlar va aqidaparastlar tuzog'iga o'zlar anglamagan holda tushib qolib, o'z vatani va xalqiga qarshi quroq ko'tarib kelayotganlarga nisbatan Prezidentimiz va Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni tomonidan bir necha bor avf e'lon qilinganida ko'ramiz. Tashabbuskorlikni esa, qo'shni Afg'onistonidagi 34 yildan buyon davom etib kelayotgan besamar va bemaqsad urushni tezroq tugatib afg'on va qo'shni davlatlar xalqi uchun tinchlikni ta'minlashda ko'rib kelmoq-damiz. Hozirgi zamонавиј урушиларда махалий јангларда гар бир махалий командир узоқдаги юқори лавозимдаги ofitserdan ko'ra voqealarни ва jarayonlarni yaxshiroq ko'rishga qodirdir.

Amir Temur bobomiz o'zining tuzuklarida ta'kidlaganidek, har bir harbiy boshliqning sha'ni, obro'-izzati uning eng qadrli fazilatidir.

1943 yil 8 yanvarda general-polkovnik Rokossovskiy Stalingrda o'rab olingen fashist generali Paulyusga "foydasiz qarshilik ko'rsatishni to'xtatishni va so'zsiz taslim bo'lishni" talab qiladi. Nemis generali rad etadi va bu haqda general-feldmarshal Mannshteyn quyidagicha yozadi: "Armiya taslim bo'lishi mumkin emas, qaysikim u hali beri kurashishga qodir bo'lsa. Bunday qarashdan voz kechish umuman harbiy onglilikdan voz kechish bilan barobardir. Askarlar bor ekan, demak qurash, harbiylik sha'ni albatta saqlanib turishi kerak".

O'tgan zamонлардагидек, sha'n, obro' qadr qimmat va g'uruning sinonimlari kabi muomalada bo'lgan. O'z qadrini bilish jangda, xizmat va hayotda ma'lum bir talabdag'i fe'l atvorni talab qilar edi. G'urur esa insonni biror bir masalada kamsitilishiga yo'l qo'yilsa bir asr ilgarigi davrlarda zudlik bilan duelga chaqirishga undar edi. Ammo fuqarolik qonunlari harbiylarning bir-birini duelga chaqirishini taqiplardi.

Ofitserning g'ururi hozirgi ijtimoiy hayot sharoitida juda ham kam kishining g'ashini keltiradigan ish va gap-so'zlarga javob bermaslikni taqozo etadi. Ofitserlar o'zlariga boshqalarning e'tiborsiz bo'lishlariga

va behurmatlik qilishlariga, boshqa-larning tana bilan qarashlarga o'zlar yo'l qo'ymasliklari kerak. Ofitser o'z sha'nidan kelib chiqqan holda munosib yashab, munosib xizmat qilib, munosib o'lishini bilishi kerak. Mashhur filosof Seneka: "Munosib o'lish bu nomunosib yashash xavfini qochib qutulish demakdir" degan edi. Ofitser hayotning xavfli tomonlardan qutilib qolishi bilan o'zining muqaddas burchini bajargan holda o'lishga doimo tayyor turadi. Spartachilarga Fermopil jangida teng bo'Imagan holdagi urushda halok bo'lganlari uchun qo'yilgan haykalga: "Yo'lovchi, agarda sen Spartaga kelsang, boshqalarga xabar berki bizlarni bu yerda Qonun talab qilgan holda o'lib yotganlarimizni ayt!". Sparta zamonidan buyon qonun talab qilgan ishga o'zini fido qilish jangchi – ofitserlar uchun o'zgarishsiz davom etib kelmoqda.

Ofitserlarga xos bo'lgan o'tmishdagi ruhni hozirgi sharoitlarda ham saqlab qolish lozim. Ammo bu shart-sharoitlar ofitserlarni alohida fuqarolik ruhida tarbiyalashni taqozo etadi.

Ofitser, pedagog, adabiyotchi, siyosatchilar xalqning ma'naviyatini, odobini va ruhini tarbiyalaydilar. Ofitserlardan boshqa tarbiyachilar yoshlarni vatan uchun qanday tarzda munosib yashashni o'rgatishadi, ofitserlar esa vatan uchun qanday sharafli o'lishni o'rgatishadi. O'ziga o'xshaganlar bilan kurashish, ya'ni urushish va xalqni urush ruhiga tayyorlaydi, uning harbiy sifatlarini rivojlantiradi, uning faqat harbiy sifatlarinigina emas, balki, boshqa bir qator ijtimoiy fazilatlarini: masalan, o'zni o'zi qurban qilish, o'zining "meni"ni milliy "biz"ga bo'ysundirish, beg'araz tarzda davlat manfaatlari uchun hamkorlik qilish bo'yicha ta'lif va tarbiya beradi. Jamiyat buni anglab yetmasligi mumkin va tan olmasligi ham mumkin, agar tan oлganida ham ofitserlarga o'rtadan yuqori bo'lib ajralib turishlariga yo'l qo'ymaydi. Ularni hatto tashqi ko'rinishlari bilan xizmatdan tashqari holatlarda harbiy kiyimda yurishlariga ruxsat berilmaydi. Bu ilgarigi ofitserlarda noroziliklar keltirib chiqarmoqda, chunki harbiyning tashqi ko'rinishi uning axloq odobiga ta'sir qiladi va o'zining ofitserlik sha'nini va g'ururini saqlab turishgan holda axloqan yuksak darajada bo'lishga undaydi deb bilishadi. Ammo, zamonaviy ofitserning xizmat qilishining ob'ektiv shart-sharoitlari va yashash muhitini ofitserlarni fuqarolikning tashqi ko'rinishi va qiyofasida bo'lishni talab etadi.

Ofitserlik jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'ziga xos namunali ahloqli guruh bo'lib qolishi kerak: chunki fuqarolarning boshqa guruhlari o'rtasida manfaatparastlikni, yulq'ichlik, behuda epchillik, tartibsiz hozirjavoblik, surbetlik, beadablik, xudbinlik kabilarga chidash mumkin bo'lsada, ofitserlar o'rtasida bunday noxush

illatlarga mutlaqo o'rin bo'imasligi kerak. Ofitserlik jasorat va jonbozlikdan iborat, "haqiqiy jasorat faqat toza buloqlardan otlib chiqadi. Bizning yurtimizda, mustaqillik sharoitida har bir sohadagi kishi, fuqaro sifatida yetakchi shaxsga aylanishi, komil inson bo'lib yetishishi uchun barcha imkoniyatlar eshibi ochiq, zamonaviy ofitserlar uchun ham. Ofitserlar jamiyatning alohida o'ziga xos a'zosigina emas, balki fuqarolikning o'ziga xos turidir.

Ofitser, jamiyatning fuqaro sifatida boshqa kishilar singari xalq siyosiy hayotida qatnasha olmaydi, saylovlarda saylana olmaydi. Bu imtiyoz unga milliy manfaatlarga qarshi kurashishni kamaytirmagan holda faqat davlatning asosiya manfaalarini himoya qilish burchini yuklaydi. Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi, ya'ni ofitserlar mamlakatda partiyaviy kurash o'ta keskinlashgan, davlatning asosiya qonunlari buzilayotgan yoki xalqning milliy birligida o'zgarishlar, buzilishlar namoyon bo'layotgan vaqtlarda asosiy arbitrlik – hakamlik vazifasini o'tashiga to'g'ri keladi.

Zamonaviy ofitserning qiyofasida kamtarlik, sipolik, diomo boshqalarga yordam ko'rsatishga tayyor turish, yaxshilik qilish, xayriyoh bo'lish, jiddiy va bama'ni mulohazali, shu bilan birga sho'x, xushchaqchaq, xudbin emas, o'rtoqlik hissiyu qilish bo'lib, kishilarni sevuvchi, hurmat qiluvchi bo'lishi lozim. Uning aql-zakovati va qalbi barcha e兹gulik, yaxshiliklar va go'zalliklar uchun doimo ochiqdir. Ularda o'tmish vatanimiz himoyachilarining meroslari: o'zbekchilik, odamgarchilik, milliy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan fuqarodir.

Ofitserlarning amaliy axloq qoida va tartiblarida quyidagilar mavjud: zaruriyatsiz xafa qilma, o'lirma. Qilich va kamon urush qurollari bo'lgan zamonalarda haqiqiy ofitserlar marhamatliligi bilan g'alaba qozonadi degan tamoyilga amal qilishgan. Jamiyatda amal qilayotgan ma'naviyatsizlik va ahloqsizlik mavjud bo'lgan sharoitda ham ofitserlar o'zlarining ma'naviy-axloqiy qiyofasining yuksakligi bilan ona-Vatan ozodligi va yurt tinchligining kafolati bo'la oladilar. Shuning uchun ham yunon faylasufi Aflatun qadimda: "Donishmandlikka nisbatan ancha chiroyli bo'lgan telbaliklar ham mavjud", deb ta'kidlagandi. Hech qanday shubha yo'qki, (ayniqsa ofitserlar uchun) donishmandlikdan, chiroyli bo'lgan "telbaligi", ofitserning oliyanobligi – shon-sharafdir.

\*\*\*\*\*

**XVII & ZAMONAVIY OFITSERNING AXLOQIY –  
MA’NAVIY QIYOFASI  
A.S.G’aniev CHOTQMBYU professori**

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi har qanday davlatda ro'y beravermaydi. Bu jamiyatning shakllanishi uchun faqat huquqiy davlatgina har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berishi mumkin. Huquqiy davlat amal qilishining asosiy sharti davlat hokimiyatining uchga bo'linish prinsipini hayotda amalga oshirishdir (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linib ishlashdan iborat).

Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati institutlari bilan muvozanat saqlashi, jamiyat institutlari davlat institutlaridan mustaqil faoliyat ko'rsatadi. Bu esa jamiyat va davlatning rivojlanish omili bo'lib, siyosiy plyuralizm, erkin fikr almashish bo'lib boradi. Jamiyatda plyuralizmning yetishmasligi oqibatida fuqarolik jambiyati institutlarini davlat tizimi "yutib" yuborishini tarix o'z vaqtida ko'rsatib turadi. Demokratik davlat inson huquq va erkinliklarining to'liq ta'minlanishini kafolatlaydi. Konstitutsiyada bo'lar haqida alohida moddalar yozib qo'yilgan. (29 modda)

**Fuqarolarning jamoat tashkilotlarida faoliyat yuritib siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etar ekan, ularda quyidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladи:**

- fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ularning siyosiy-ijtimoiy his-tuyg'ularini uyg'otadi, ularda bu yo'nalishga intilish shakllanadi. Har bir fuqaroning ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshadi;
- fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy harakatlari; bu jarayonda oddiy fuqarolar manfaatlari, ehtiyojlari va intilishlarining hisobga olinishi ularga erknlik beradi. Bu qaror-lar xalq taqdiridagi fuqarolarda siyosiy mas'uliyat ruhini shakllantiradi;
- fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki partiylar va NNT orqali ifodalanadi va ular yanada faollashadilar; natijada o'zaro manfaatlар kelishuvi oqibatida jamiyatning barqaror bo'lishiga katta hissa qo'shiladi;

- bu ishtirok etishlar har bir fuqaroni o'zligini anglashga, uning jamiyatda o'ziga munosib o'rinnegallashiga shart-sharoit yaratadi, o'z mamlakatiga egalik qilish hissini shakllantirib, milliy iftixor tuyg'ularining yuksalishini ta'minlaydi;
- davlat hokimiyati jamiyatdagagi barcha ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini o'z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishadi;
- ma'muriy tadbirlarni amalga oshirishdagi faoliyatini jamiyat hech bir zo'riqishlarsiz va ixtiyoriy ravishda qabul qiladi va ularni fuqarolar keng qo'llab-quvatlaydilar.

OA Vlarning o'rni va roli ham yuksak, chunki u odamlarga boshchilik qiladi, ularni maqsad sari yo'naltiradi va boshqaradi. Matbuotning qudrati – so'z va axborot vositasida fuqarolik jamiyatiga ma'naviy-g'oyaviy ta'sir o'tkaza olish qobiliyatiga egadir. OA Vlari 4 ta asosiy vazifani bajaradi. 1 - dunyoga teran nigh bilan boqish (axborot yig'ish va yoyish); 2 – umumxalq fikrini shakllantirish; 3 – muharrirlik (axborotni tanlash va tahlil etish); 4 – ma'rifat va madaniyat targ'ib etishdan iboratdir.

Fuqarolik jamiyatida "qonun ustivor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfa-atlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi"<sup>25</sup>.

Fuqarolik jamiyat shakllanishining asosi, muhim shartlaridan biri – inson huquqlarini jamiyat va davlatda oliv ne'mat sifatida e'tirof etish, ularni ta'minlashning umummajburiyligidir. Shubhasiz, bu holat huquqiy davlatning eng asosiy belgisi bo'lgan qonun ustivorligi ta'minlangan holdagini mayjud bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, inson huquqlari umummajburiy bo'lishini ta'minlashda huquqiy davlatning asosi – hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsip muhim ahamiyatga ega, chunki davlat hokimiyati turli organlari vakolatlari bo'linishi nisbatani inson huquqlarining institutsional kafolatlarini yaratadi.

---

<sup>25</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. 173-б.

“... yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda”<sup>26</sup>.

Mazkur konsepsiyanı hayotga bosqichma-bosqich tadbiq etib, amalga oshirib borishimizda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kafolat vazifasini o‘taydi. Qurolli Kuchlarimizning asosi va tayanchi zamonaviy ofitser kadrlarimiz tashkil etadi. Har bir davlatning, har bir xalqning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini ro‘yobga chiqarish avvalombor, yurtda tinchlik va osoyishtalikning barqarorligi ta‘minlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Erishgan mustaqilligimizni yanada mustahkamlash O‘zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Islom Karimovning 2013 yil 13 yanvarda “Vatan himoyachilar”ga yo‘llagan tabrigida ta‘kidlab o‘tganidek, “...armiya-ni tom ma’noda armiya qiladigan, har qanday murakkab vaziyat va sinovlar-dan yorug‘ yuz bilan chiqishiga asos bo‘ladigan, uning jangovar qudrati va harbiy mahoratini yuksaltiradigan kuch bu – armiya saflarida xizmat qila-yotgan insonlardir”.

Insonning ichki boy mazmuni va tashqi ‘qiyofasi’ bilan muvofiqlashgan bo‘lsagina bunday kishini madaniyatli, ziyoli deymiz. Axloqiy madaniyat – bu axloqiy ong va axloqiy sifatlar, boshqa kishilarga suhbatlashish jarayonida shaxsiy ta’sir etish madaniyatidir. Shaxsiy ta’sir etish, ma’lumki katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek ofitserining ichki madaniyatining asosiy jihat-lari bo‘lib keng darajadagi ma’naviy qadriyatları, hartomonlama nazariy va amaliy tayyorgarligi, boy tajribasi tashkil etadi.

Ofitserning axloqiy madaniyatini va uning harbiy faoliyatini ishchanlik, aniqlik, puxtalik, vazifani o‘z vaqtida bajarishlik, halollik, g‘ayratilik kabi sifatlari bezaydi. ularga amal qilish ishchan muhitni yaratadi, bunday holatda ishining mahsulorligi sezilarli o‘sadi va ofitser faoliyatining samaradorligi yuksalib boradi.

Ofitserga qo‘l ostidagi xizmatchilarga buyruq va ko‘rsatmalar berish huquqi berilgan. Bunda ofitserdan xizmat vazifasini bajarishda har bir shaxsning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olishni taqozo etadi, bosiqlik, hamsuhbatdoshini bo‘lmay turib tinglay bilish, jahlini va

<sup>26</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенати-нинг кўшма мажлисидаги маъруzasи. 2010 йил 12 ноябрь – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. 15-16 б.

alamini bosa bilishi kerak? bo‘lmasa bular ayrim holatlarda oxirigacha o‘ylamay-netmay-harakat qilishga va xulosalar chiqarishga va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib keladi. Tarbiya ko‘rgan ma‘naviyatli va axloqli ofitsér odatda qo‘l ostidagi xizmatchilar tartibni yoki qoidani buzganlarida agar sharoit imkon bersa, hissiyotga berilmay osoyishta holatda o‘ylab turib qaror qabul qiladi. U yoshlarni og‘ir va bosiqlik bilan o‘ylab ish qilishga va har qanday ishga mas‘uliyat bilan yondoshishiga o‘zining faoliyati namunasi bilan o‘rgatib boradi, chunki harbiy xizmatchining kayfiyati bajarayotgan xizmat ishiga xalaqt bermasligi kerak.

Betakallufsizlik, ya’ni insonga behurmatlik bilan qarash, qo‘l ostidagilarning ishidan doimo biror kamchilik topishga harakat qilish, sensi-rash, kamchiliklariga marhamatli bo‘lib o‘rgatmasliklar salbiy oqibatlarga olib keladi. Oshna-og‘aynigarchilik, nojо‘ya ishlarga beparvo qarash, ma‘lum bir ongi pastroq guruh doiralarda “boshliq-yaxshi odam”, “ko‘ylakda tug‘ilgan bola” degan noto‘g‘ri nom qo‘yishadi, ammo bunday nom hech kimni bezamaydi ham, hech kimga hech qanday foyda keltirmaydi.

Past talabchanlik albatta harbiy intizomga, o‘rnatilgan tartiblarga, jangavor tayyorgarlikka putur yetkazadi, xolos. Xizmatdagi axloqiy munosa-batlarda doimo xushmuomalali tarzda talabchan bo‘lib do‘stona puxtalik, o‘zini tuta bilishlik va bosiqlik bilan ish olib borishi lozim. Ayrim holatlarda ba‘zilar vaziyatga qarab turib zudlik bilan bag‘rikenglikdan tushunib bo‘lmaydigan chatoq kayfiyatga, axloqiy sabrsizlikka o‘tib ketib qoladilar, bundaylarni hardam xayol deyishadi.

O‘zini nazort qilib, bardoshli bo‘lib ish tutish – ofitser madaniyati va ma‘naviyatining majburiy sifati bo‘lishi kerak. Axloqan tarbiya ko‘rgan kishi o‘ziga doimo yuqori talablar qo‘yadi. Shaxsnинг o‘zi axloqiy talab va qoidalarga amal qilmay boshqalardan talab qilsa, bunday kishilar hech qachon atrofidagilar o‘rtasida obro‘ ham qozona olmaydi, o‘z-o‘zidan yomon illatlar botqog‘iga tushib, cho‘kib boraveradi, ham jamoada, ham oilasida ma‘naviy-axloqiy qiyofasini yo‘qotadi, xolos.

“Hayotda kim o‘limga, qurban bo‘lishga tayyor bo‘lsa, faqat o‘sha kishi yashashga loyiq bo‘ladi” deyiladi askarlar qo‘srig‘ida. “Yashamoqni bildingmi, o‘lmoqni ham bilmog‘ing darkor. Haq ish yo‘lida kurashib halok bo‘lgan inson o‘limdan ustun turadi” deyishgan Shiroq bobomiz zamonlarida.

Bizning asrimizda ofitserlar texnik bilimlarga keng tarzdagи muh-tojlik sezadilar, asrning boshida esa har qanday qilib bo'lsada jangni g'alaba bilan yakunlash uchungina harakat qilib texnikaga yetarli darajada e'tibor berishmas edi, endi bo'lsa texnik bilimlarini har tomonlama kengaytirishi va shu bilan birga o'zining harbiy-ma'naviy ongini saqlab qolishi zarur.

Amerikalik general Bredlining ta'kidlashicha, Amerika Qo'ma Shtatilik askar – jahondagi eng to'la-to'kis individualist hisoblanadilar, ya'ni ular zamon talablariga javob berishadi, har bir askarga qo'yilgan talablarni bajarishga qodir: mustaqil jangchi bo'lishga qodirlar. German soldati esa o'qishining oxiridagi 7 kunni o'rmonda kompassiz sharoitdan kelib chiqib yashirin tarzda harakat qilish, o'rmonda iste'molga yaroqli oziq-ovqat topishi kerak, shuning uchun uni kazarmadan 100 km o'zoq joyga tashla-shadi va noma'lum joydan uch kun ichida, bosib o'tadigan yo'llarida taktik vazifalarni bajargan holda yetib kelishi kerak.. Shu tarzda o'zining individual qobiliyatlarini rivojlantirib boradi.

Ofitser faoliyatida doimo tashabbuskorlik kerak, ya'ni faol va serg'ay-rat bo'lib boshqarishi va vazifalarni bajartirishi kerak, birinchidan, ikkinchidan esa, qo'l ostidagilarga namuna ko'rsatishni bilishi shart. Askar ofitserning orqasidan borganda hech narsadan qo'rmasligi kerak. Amir Temur qo'shining rahbarlari doimo qo'shining oldingi saflarida bo'lib boshqalarga jangga tashlanish namunasini ko'rsatishi bilan boshqalarni ruhlantiradi deydi.

Ofitser mas'uliyatdan qo'rmasligi kerak, mas'uliyatni burchi deb bilishi lozim. Ofitserlar faoliyatida mas'uliyat va tashabbuskorlik doimo birgalikda yurishi lozim. Bu ikki sifat ofitser faoliyatida ajralmasdir. Zamonaviy ofitserlarga bu sifatlar ilgarigi ofitserlardan ko'ra ko'proq zarurdir, chunki ilgarigi urushlarda ularning qatorlari zinch bo'lib, qat'iy belgilangan harbiy tartibda: urushdagi bosh ko'tarishlar, to'liq tartibsizliklar va tayyorgarliksiz jangavor safga tizilish va harbiy harakatlar albatta qonun asosida bajarishi talab etilgan. Har bir ofitser o'z burchini bajarayotganida o'z tafakkuri bilan va harbiy tajribasi bilan birgalikda harakat qilishi darkor. Vaholanki, ilgarigi buyruqni bajarish bilan hozirgi davrdagi qonun doirasidagi buyruqni ijodiy tarzda bajarish sharoitida ham harbiy sarkardalarimiz bo'lmish Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Boburlarning o'gitlariga va doimo ofitserlardan talab etil-gan: "jasorat va mardlik ko'rsatish, ziyrak va sezgir bo'lish, uzoqni ko'ra bilish, tadbirdorlik - ya'ni ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirdor va xushyor bir kishi, ming-minglab tadbirdsiz, loqayd

kishilardan yaxshidir, g‘anim lashkarini yengish qo‘shtinning ko‘pligi bilan emas, mag‘lub bo‘lish esa sipohining kamligidan bo‘lmaydi, balki g‘olib bo‘lmoqlik (tangrining) madadi va bandasining tadbiri bilandir, ishning qanday yakunlanishi yashirin bo‘lsa, aqlilik va xushyorlik bilan kengashib turib tartib-intizom bilan harakat qilishni tavsiya etadilar.

Bir ishga kirishmay turib, undan qutilib chiqish yo‘llarini mo‘ljallab qo‘y deydi, Amir Temur bobomiz. Dilkash, mo‘tadil bo‘lish, qoidaga amal qilish, ko‘z bilan chamalash, tezkorlik, shiddat, siquvga olish, insonpar-varlik, tinchitish, unutish kabi sifat va fazilatlarni unutmaslik va ularga qat’iy amal qilish orqali ofitser zamonaviy yoshlarni boshqara oladi.

Amir Temur bobomiz o‘zining tuzuklarida ta‘kidlaganidek, har bir harbiy boshliqning sha‘ni, obro‘-izzati uning eng qadrli fazilatidir.

Bir yarim asr ilgari, o‘tgan zamonlardagidek, sha’n, obro‘, qadr qimmat va g‘ururning sinonimlari kabi muomalada bo‘lgan. O‘z qadrini bilish jangda, xizmat va hayotda ma‘lum bir talabdagi fe‘l atvorni talab qilar edi. G‘urur esa insonni biror bir masalada kamsitilishiga yo‘l qo‘yilsa zudlik bilan kurashga chaqirishga undar edi.

Ofitserning g‘ururi hozirgi ijtimoiy hayot sharoitida juda ham kam kishining g‘ashini keltiradigan ish va gap-so‘zlarga umuman javob bermas-likni taqozo etadi. Ofitserlar o‘zlariga boshqalarning e’tiborsiz bo‘lish-lariga va behurmatlik qilishlariga va boshqalarning tana bilan qarash-larga o‘zları yo‘l qo‘ymasliklari kerak. Ofitser o‘z sha’nidan kelib chiqqan tarzda munosib yashab, munosib xizmat qilib, munosib o‘lishini bilishi kerak. Seneka: “Munosib o‘lish bu nomunosib yashash xavfidan qochib qutulish demakdir” degan edi. Ofitser hayotning xavfli tomonlaridan qutilib qolishi bilan o‘zining muqaddas burchini bajargan holda o‘lishga doimo tayyor turadi. Spartachilarga Fermopil jangida teng bo‘lмаган holdagi urushda halok bo‘lganlari uchun qo‘yilgan haykalga: “Yo‘lovchi, agarda sen Spartaga kelsang, boshqalarga xabar berki bizlarni bu yerda Qonun talab qilgan holda o‘lib yotganlarimizni ayt!”. Sparta zamonidan buyon qonun talab qilgan ishga o‘zini fido qilish jangchi – ofitserlar uchun o‘zgarishsiz davom etib kelmoqda.

Ofitser, pedagog, adabiyotchi, siyosatchilar xalqning ma’naviyatini, odob-ini va ruhini tarbiyalaydilar. Pedagog, adabiyotchi va siyosatchilar yoshlarni vatan uchun qanday tarzda munosib yashashni o‘rgatishadi. Ofitser-o‘qituvchi-larning boshqa tarbiyachilardan farqi, ular askarlarni vatan uchun qanday sharafli tarzda o‘lishni o‘rgatishadi.

O'ziga o'xshaganlar bilan kurashish, ya'ni urushishi orqali xalqni urush ruhiga tayyorlaydi, uning harbiy sifatlarini rivojlantiradi, uning nafaqat harbiy sifatlarinigina emas, balki, boshqa bir qator ijtimoiy - masalan, o'z-o'zini qurban qilish, o'zining "meni"nini milliy "biz"ga bo'ysundirish, beg'araz tarzda davlat manfaatlari uchun hamkorlik qilish. Jamiyat buni anglab yetmasligi mumkin va tan olmasligi ham mumkin, agar tan olganida ham ofitserlarga o'rtadan yuqori bo'lib ajralib turishlariga yo'l qo'ymaydi. Ularni hatto tashqi ko'rinishlari bilan xizmatdan tashqari holatlarda harbiy kiyimda yurishlariga ruxsat berilmaydi. Bu ilgarigi ofitserlarda noroziliklar keltirib chiqarmoqda, chunki harbiyning tashqi ko'rinishi uning axloq odobiga ta'sir qiladi va o'zining ofitserlik sha'nini va g'ururini saqlab turishgan holda axloqan yuksak darajada bo'lishga undaydi deb bilihadi. Ammo, zamonaviy ofitserning xizmat qilishining ob'ektiv shart-sharoitlari va yashash muhitini ofitserlarni fuqarolik tashqi ko'rinishi va qiyofasida bo'lishni talab etadi.

Ofitserlik jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruuhlar o'ziga xos namunali ahloqli guruuh bo'lib qolishi kerak: chunki fuqarolarning boshqa guruhlari o'rtasida manfaatparastlikni, yulg'ichlik, behuda epchillik, tartibsiz hozirjavoblik, surbetlik, beadablik, xudbinlik kabilarga chi-dash mumkin bo'lsada, ofitserlar o'rtasida bunday noxush illatlarga mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak. Ofitserlik jasorat va jonbozlikdan iborat, "haqiqiy jasorat faqat toza buloqlardan otilib chiqadi. Bizning yurti-mizda, mustaqillik sharoitida har bir sohadagi kishi, fuqaro sifatida yetakchi shaxsga aylanishi, komil inson bo'lib yetishishi uchun barcha imkoniyatlarni eshigi ochiq, zamonaviy ofitserlar uchun ham. Ofitserlar jamiyatning alohida o'ziga xos a'zosigina emas, balki fuqarolikning o'ziga xos turidir.

Ofitser, jamiyatning fuqarosi sifatida boshqa kishilar singari xalq siyosiy hayotida qatnasha olmaydi, saylovlarda saylana olmaydi. Bu imtiyoz unga milliy manfaatlarga qarshi kurashishni kamaytirmagan holda faqat davlatning asosiy manfaatlарини himoya qilish burchini yuklaydi.

Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi, ya'ni ofitserlar mamlakatda partiyaviy kurash o'ta keskinlashgan, davlatning asosiy qonunlari buzilayot-gan yoki xalqning milliy birligida o'zgarishlar, buzilishlar namoyon bo'layot-gan vaqtarda asosiy arbitrlik-hakamlik vazifasini o'tashiga to'g'ri keladi.

Zamonaviy ofitserning qiyofasida kamtarlik, sopolik, diomo boshqalarga yordam ko'rsatishga tayyor turish, yaxshilik qilish, xayrixoh bo'lish, jid-diy bama'ni mulohazali, shu bilan birga sho'x, xushchaqchaq, xudbin emas, o'rtoqlik hissi yuqori bo'lib, kishilarni sevuvchi, hurmat qiluvchi bo'lishi lozim. Uning aql-zakovati va qalbi barcha ezgulik, yaxshiliklar va go'zallik-lar uchun doimo ochiqdir. Ularda o'tmish vatanimiz himoyachilarining meros-lari: o'zbekchilik, odamgarchilik, milliy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan fuqarodir.

Ofitserlarning amaliy axloq qoida va tartiblarida quyidagilar mavjud: zaruriyatsiz xafa qilma, o'lirma. Qilich va kamon urush qurollari bo'lgan zamonlarda haqiqiy ofitserlar marhamatliligi bilan g'alaba qozo-nadi degan tamoyilga amal qilishgan. Jamiyatda amal qilayotgan ma'navi-yatsizlik va ahloqsizlik mavjud bo'lgan sharoitda ham ofitserlarimiz o'zlarining ma'naviy-axloqiy qiyofasining yuksakligi bilan ona-Vatan ozodligi va obodligining, yurt tinchligining kafolati bo'la oladilar. Shuning uchun ham yunon faylasufi Aflatun qadimda: "Donishmandlikka nisbatan ancha chiroyli bo'lgan telbaliklar ham mavjud", deb ta'kidlagandi. Hech qanday shubha yo'qki, (ayniqsas ofitserlar uchun) donishmandlikdan, chiroyli bo'lgan "telbaligi", ofitserning oliyanobligi – shon-sharafdir.

Amir Temur, "Piru komil shayx Bahovuddin Naqshbandning "Kam yegin, kam uxla, kam gapir" degan pandu nasihatlariga amal qildim. Arkonu davlatga, barcha mulozimlarga ham aytar so'zim shu bo'ldi: "Kam yenglar – ocharchilik ko'rmasdan boy – badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammal-likka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo'lasizlar"<sup>27</sup> degan hikmatli o'gitlar bizning yosh ofitser kadrlar uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Buyuk bobomizning vasiyat qilib qoldirgan yana bir o'gitlaridagi "Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir!" degani esa har birimizning o'z ma'naviy-axloqiy qiyofamizni baholashimiz uchun mezon bo'lib qolajak.

<sup>27</sup> Амир Темур ўгитлари. Тошкент, "Наврўз", 1992. 58-б.

## XVIII &. HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI UCHUN ZARUR BO'LADIGAN HIKMATLI SO'ZLAR

Mustaqillik – ozodlik, bilimlilik, ma'naviyatlilik, e'tiqodlilik va imonlilik hamda iroda bilan yuksaladi.

Ozodligimizni xatolarga yedirmaylik!

Davlatimizning muvaffaqiyatlari – xalqimizning baxti.

Mustaqillik – mustaqil fikrlashni talab qiladi.

Har bir inson uchun o'z Vatani muqaddasdir.

Ona yurt – oltin beshik

Vatanni bilim va mehnat obod qiladi.

Eli baquvvatning – beli baquvvat.

Vatanni sevish va qadrlash unga qilinayotgan fidokorlikda namoyon bo'lib boradi.

Vatanning tinchligi – obodonligidir.

Odamning ildizi o'z Vatanida, chetga ketganlar sun'iy yashaydilar.

Vatan taqdiri – har bir kishining taqdiri

Vatanparvarlik – ota-bobolardan bizga qolgan meros

Muhojir – bir umrga Vatanidan qarzdor.

Sotqin – Vatanni sotish bilan o'z avlod-ajdodining hokini ham pullaydigan nokasdir.

Josus – Vatan jismiga bolta uruvchidir.

Vatanpurush – boshqa yurtga ham vafo qilmaydi

Elini tanimagan er bo'lmas

Vatan mudofaasi uchun halok bo'lganlar xalqining yuragida mangu barhayotdirlar.

Vatan qudratining taqdiri – yosh avlod qo'lida.

Insonda Vatan va unga mehr bo'lishi, or nomus ishidir.

O'zini tanigan odam Vatanini xor qilmaydi.

Vatanning osoyishtaligi otalar adolati-yu, farzandlar jasoratida.

Mamlakatning husni – o'sha mamlakat fuqarolarining qo'lida.

Vatanini qo'riqlay olmagan odam – o'z yurtida musofirdek yashashga majbur.

Vatan xiyonatni kechirmaydi.

Vatan bog'iga ilon aralashmasin!

Vatan farzandlari mafkurasini tarbiyalamay turib, uni obod etib bo'lmaydi.

## MUNDARIJA

1.	So‘z boshi .....	3
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni SHAVKAT MIRZIYOYEV .....	6
3.	Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Mustaqilligimizni mustahkamlash, mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada qudratli bo‘lishi inson omiliga bog‘liqligi haqida fikrllari.....	9
4.	Ofitser – ota o‘rnida tarbiyachi. ....	12
5.	Vatan posbonlari .....	17
6.	Burch .....	21
7.	Armiya va harbiylar .....	28
8.	Harbiy aforizmlar .....	38
9.	Vatan haqida.....	48
10.	Mutaxassislarning nuqtal- nazarlari.Zamonaviy rahbar faoliyatining ma’naviy-axloqiy asoslari .....	50
11.	Ma’naviy tahdidlar: salbiy oqibatlari va ularga qarshi kurash .....	51
12.	Zamonaviy harbiy xizmatchining ma’naviy-axloqiy qiyofasi .....	63
13.	Zamonaviy rahbarlarga bo‘lgan talablar .....	67
14.	Zamonaviy ofitserning intellektual salohiyati. ....	82
15.	Zamonaviy ofitserning axloqiy madaniyati	83
16.	Zamonaviy ofitserning ma’naviy – axloqiy qiyofasi....	85
17.	Zamonaviy ofitserning axloqiy – ma’naviy qiyofasi.....	90
18.	Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uchun zarur bo‘ladigan hikmatli so‘zlar Vatan posbonlari .....	98

SH.S. RO'ZIMOV

## HARBIY HIKMATLAR – MA’NAVIY QUROL

Toshkent – «Nihol print» OK – 2021

Muharrir:	Q.Matqurbanov
Tex. muharrir:	A.Tog‘ayev
Musavvir:	B.Esanov
Musahhiha:	G.Tog‘ayeva
Kompyuterda sahifalovchi:	B.Berdimurodov

Nashr.lits. AI №176. 11.06.11.  
Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2020. Bichimi 60x841 /16.  
Shartli bosma tabog‘i 6,75. Nashr bosma tabog‘i 6,25.  
Adadi 60. Buyurtma № 19.

«Nihol print» Ok da chop etildi.  
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.